

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA

MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

BUXORO DALAT UNIVERSITETI

TARIX KAFEDRASI

4-KURS KUNDUZGI BO`LIM BITIRUVCHISI

HIDOYEVA OYSULOVNING

**XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro vohasida
dehqonchilik madaniyati va ular bilan bog`liq udum va
marosimlar.**

**MALAKAVIY BITIRIUV
ISHI**

(2010-2011 o`quv yili)

Ilmiy rahbar:

N.A.JUMAYEVA

Buxoro-2012

**Mavzu: XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro
vohasida dehqonchilik madaniyati va ular bilan
bog`liq udum va marosimlar.**

Reja:

Kirish.

1. Quyi Zarafshon vohasi dehqonchiligining tarixiy ildizlari:
sug`orilishi, ziroatchilik xo`jaligi va an`anaviy agrotexnika.
2. Taqvimlarda dehqonchilik madaniyati
3. Buxoro vohasi dehqonlarining urf-odat va marosimlari
4. Xalq og`zaki ijodida dehqonchilik madaniyati

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

Ilova

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi. Tarixdan ma'lumki, O`rta osiyo hududida aholi azaldan vodiylarda, katta suv manbalari – daryo va anhorlar bo`yida yashab keladi. Atrofi cho`l va sahrolar bilan o`ralgan, tabiati, iqlimi g`oyat murakkab bo`lgan mintaqa sharoitining o`zi ana shu millat va elatlarning ming yillar davomida bir-biriga moslashib, yaqin yelkadosh bo`lib, bir-birining og`irini yengil qilib yashashlarini taqozo etdi. Chindan ham bu zaminda istiqomat qiladigan odamlarning tarqoq bo`lib yashashga imkoni yo`q. Tabiatning o`zi, hayotning o`zi ularni shu ruhda tarbiyalagan.¹

Istiqlol yillari yangi mustaqil O`zbekistonning milliy davlatchiligi poydevorini barpo etish sohasida puxta va jiddiy ish olib borilgan davr bo`ldi. Mustaqillikka erishilganidan keyin xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyektiga aylangan suveren O`zbekiston yangi davlatchiligini qurish va rivojlantirishga kirishdi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida hozirgi O`zbekiston hududi tarkibiga uch davlat birlashmasi – Rossiya O`rta Osiyoni zabt etganidan keyingi tuzilgan va uning tarkibiga mustamlaka sifatida qo`shib olingan Turkiston general-gubernatorligi, yuzaki ravishda mustaqil bo`lgan, ammo Rossiyaga qaram hisoblangan Buxoro amirligi va Xiva xonligi kirar edi.

Mustamlakachilik usullari bilan tashqaridan amalga oshirilgan O`rta Osiyoda, jumladan Buxoro vohasida yangilanish jarayoni doimo qoloqlikda saqlash omiliga aylanib keldi.

¹ I.Karimov – “Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch” T., 2008-y. B-9

Birinchi dan, iqtisodiy ekspansiya yillari mobaynida vujudga keltirilgan xalq xo`jaligining yangi o`choqlari – zo`r berib rivojlanayotgan paxtachilik, paxta tozalash – asosiy tarkibiy qism edi.

Ikkinchi dan, ishlab chiqarish o`choqlarining barpo etilishi o`lka iqtisodiyotini izdan chiqardi. Shu davrda Buxoro vohasida ham asosan hunarmandchilik va kosibchilik ishlab chiqarishi metropoliya sanoat tovarlarining raqobati sababli tobora ko`proq tushkunlikka uchrab, yemirila bordi. Va nihoyat, Rossiya iqtisodiyoti uchun ishlagan Buxoro vohasining dehqonchiligining xomashyo yetishtirish yo`nalishida bo`lishi, donli ekin maydonlarining qisqartirilishi, hunarmandchilik – kosibchilik ishlab chiqarishining tushkunlikka uchraganligi Buxoro amirligining iqtisodiy jihatdan tobeligini yanada kuchaytirdi. Madaniyat sohasida tashqaridan tiqishtirilgan zamonaviylashtirish jarayoni milliy madaniy merosni barbod etish, xalqning yashovchan an'anaviy qadriyatlari – dehqonchilik va hunarmandchilik madaniyati, urf-odatlarini yo`q qilish xavfini tug`dirdi.² Mustaqilligimizdan oldingi davrlarda tariximizning muhim sahofalari, jumladan, Rossiya imperiyasi bosib olishidan oldin O`rta Osiyoda mavjud bo`lgan davlatlar, xususan Buxoro amirligi, vohadagi dehqonchilik madaniyati, urf-odatlarini, sug`orilishi, ziroatchiligi kabilarga uncha ahamiyat berilmagan.

Bugungi kunda Buxoro vohasi tarixi, an'anaviy xo`jaliklar, xususan XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro vohasida dehqonchilik madaniyati va urf-odatlarini dehqonchilik turlari, dehqonlarning marosimlari tarixini bilish tarafdorlari ko`payib borayotgani hech kimga sir emas.

² O`zbekistonning yangi tarixi. II qism. T., 2000. 11-bet

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov ta`rifi bilan aytganda, shu bois biz ota-bobolarimizga sun`iy ranglar bilan baho bermasligimiz, balki ularning hayotini, ular yashagan davrning mohiyatini to`g`ri tushunishga harakat qilishimiz lozim.³

Qiziqish va intilishlar kuchayib borayotganligining sababi – XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro vohasida dehqonchilik madaniyati va urf-odatlarini, voha dehqonchiligining tarixiy ildizlari, an`anaviy agrotexnikasi, Buxoro vohasi dehqonlari urf-odat va marosimlarining o`sha davr holatini o`rganish kabilardir. Bundan tashqari voha dehqonchiligini o`rganish orqali o`sha davr dehqonchiligi sirlari tarixini ochib berish imkoniyati tug`iladi. Yana shu davrda (XX asr boshlarida) dehqon xo`jaliklarining xonavayron bo`lish sabablari, agrar tarmoqdagi ishlab chiqarish darajasi, ekin maydonlari va umuman yer to`g`risida o`sha davrda qabul qilingan qonunlar kabilarni bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, tariximizning muhim sahifalaridan biri hisoblangan XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro vohasida dehqonchilik madaniyati, agrotexnika va sug`orilishi kam yoritilganligi, bu mavzuda asar, maqolalar kam yozilganligini e`tiborga olib, tarixiy dalil va voqealarning asl mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish va targ`ib etish vazifasi hamon dolzarbdir. Ayniqsa dehqonchilik bilan bog`liq bo`lgan marosimlar va uruf-odat hamda udumlarning sovet davrida cheklab tashlanishi hamda ba`zi birlarining sovetcha transformatsiyaga uchrashi o`sha davrdagi udum va marosimlarning haqiqiy mazmunini ochib berishni taqozo etadi. Xalq orzu-umidlari, mingyillik tajribasining mahsuli bo`lgan bunday madaniyat turini o`rganish har birimiz uchun anchayin dolzarb mavzudir.

³ I.Karimov – “Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz”. “Turkiston” – 1999, 2-fevral

Mavzuning maqsad va vazifalari: Ushbu bitiruv malakaviy ishni yozishdan maqsad – XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro vohasida dehqonchilik madaniyati va urf-odatlarini, dehqonchilik turlarini o`rganish, tahlil qilish va keng jamoatchilikka yetkazishdan iborat.

Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi aniq vazifalar belgilab olindi:

- Tariximizning g`oyat muhim sahifalari, jumladan XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro vohasida dehqonchilik madaniyati va urf-odatlarini yoritib berish;

- Shu davr Zarafshon vohasi dehqonchiligining tarixiy ildizlari : sug`orilishi, ziroatchiligi va an`anaviy agrotexnikasini tahlil qilish;

- Xalqimiz mingyillar davomida foydalangan taqvimlarda dehqonlar madaniyati, dehqonchilik taqvimlarining agrotexnikada muhim rol o`ynashini ko`rsatib berish;

- XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro vohasi dehqonlarining urf-odat va marosimlari haqida ma`lumot berish;

- Shu davr Buxoro vohasida dehqonchilik madaniyati, an`anaviy dehqonchilik madaniyati ildizlari, u bilan bog`liq bo`lgan xalq og`zaki ijodi va an`anaviy folklorni tahlil qilish.

Mavzuning o`rganilish darajasi: Bugun biz o`rganayotgan “XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro vohasida dehqonchilik madaniyati va u bilan bogliq urf-odat va marosimlar” mavzuida yozilgan asarlar, maqolalar va ilmiy ishlar birmuncha kamroq. Ushbu mavzu yuzasidan aynan aniq o`rganilish bo`lmasa-da, shu doiradagi asarlar va maqolalar mavjud bo`lib, biz ularning ba`zilariga

to`xtalib o`tamiz. Shunday asarlardan biri A.Muhammadjonovning⁴ kitobidir. Ushbu kitob chuqur ilmiy o`rganish va tahlillar asosida yozilgan bo`lib, aniq arxeologik faktlarga asoslangan. Buning sababini A.Muhammadjonovning sababiyatlari bilan izohlaydigan bo`lsak, Buxoroning turli tarixiy davrga mansub bo`lgan va hozirgi kungacha saqlanib qolgan moddiy-madaniy yodgorliklari quyi Zarafshonning sug`orilishi va azaliy dehqonchilik madaniyati bilan chambarchas bog`liqdir. Bundan tashqari bunday manbalar vohaning sug`orilib obod etilishining uzoq tarixiy jarayonini o`rganishda tadqiqotchilar uchun behad boy faktik ma`lumotlar beruvchi yagona bosh manba hisoblanadi.⁵

Asarda quyi Zarafshonning o`zlashtirilishi dinamikasini aniqlash yillari, unda avvalo Buxoro vohasida, uning qadimdan sug`orilgan yerlarida topib tekshirilgan yodgorliklarning qisqacha bo`lsa ham umumiy ma`lumotlari haqida to`xtalib o`tilgan.

Jumladan, Buxoroning qadimgi sug`orilgan yerlari katta qismi Zarafshon daryosi quyi oqimida, uning delta xarakteridagi qadimgi yirik irmoqlaridan Mohondaryo va Vobkantdaryo etaklarida joylashgan bo`lib, u Buxoro vohasining g`arbiy va shimoli-g`arbiy chegarasida yondashgan. Bu rayonning arxeologik manzarasi mezolit davrining ahyon-ahyonda uchrab turadigan chaqmoqtosh qurollaridan tortib, qal`alar va qasrlarning xarobalari hamda Qizilqumga tutashib ketgan suvsiz hududlar ham aytib o`tilgan.⁶

⁴ Muhammadjonov.A - Quyi Zarafshon vodiysining sug`orilish tarixi. T., 1972-y

⁵ O`sha asar.- B.76

⁶ O`sha asar. - B-77

Yana bir asar K.Z. Hakimovning⁷ kitobi bo`lib, asarda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligi hududida dehqonchilikka e`tiborning qay darajada ekanligi, 1868-yilgi shartnomadan so`ng dehqonchilik uchun juda qulay bo`lgan hududlar Samarqand, Kattaqo`rg`on hududlari Rossiya tasarrufiga o`tganligi haqida gapirilgan. Bunda asosan mavzuga tarixiy nuqtai nazardan yondashilgan.

Bundan tashqari asarda faktik materiallar ham keltirilgan bo`lib, XIX asr oxirida Buxoro amirligi hududi 210.000 km² ekanligi, dehqonchilik qulay bo`lgan o`lkalar – Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, tog`li viloyatlar – Ko`lob, Baljuvon, Hisor, Qorategin kabilar haqida ham to`xtalib o`tilgan.⁸ O`sha davrda dehqonlar ahvoli, dehqonchilik vohalaridan olinadigan soliqlar – mushrifona, xasuna puli, somon puli kabilar haqida ham ma`lumotlar berilgan.⁹

Ushbu mavzu to`g`risida A.Narziqulovning¹⁰ asari ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu asarda dehqonlarning shamsiy va qamariy oylar bo`yicha mashg`ulotlari taqsimoti, qilinadigan ishlar, ushbu oylar bilan bog`liq udumlar haqida ham ma`lumotlar keltirilgan. Ayniqsa ushbu kitobdagi qadimdan otabobolarimizdan qolib kelgan shu taqvimga bog`liq hikmatlar katta ahamiyat kasb etadi. Bu asarni ham chuqur tahlil qilish asnosida mavzuga doir ko`pgina qiziq ma`lumotlarni olish mumkin.

⁷ Хакимова.К – Крестьянство Бухарского эмирата в конце XIX - начале XX века. Т.,1991-г

⁸ O`sha asar. C-7

⁹ O`sha asar. C-48

¹⁰ Narziqulov.A – Dehqon taqvimi. Т., 1991-y

I bob. Zarafshon vohasi dehqonchiligining tarixiy ildizlari: sug`orilishi, ziroatchilik xo`jaligi va an'anaviy agrotexnika.

Insoniyat yaralibdiki, rizq-ro`z topishga, o`zi uchun yaxshi hayot tarzini yaratishga harakat qiladi. Buning uchun kerak bo`lsa tabiat bilan kurashadi, uni o`zgartiradi. Tarixga nazar tashlasak, insoniyatning ilk ishlab chiqaruvchi xo`jalikka o`tishi chorvachilik va dehqonchilik bilan bog`liqdir. Dehqonchilik nima o`zi? U qanday madaniyat edi? Dehqonchilik madaniyati iborasi asli yerga ishlov bermoq degan ma`noni anglatib, keyinchalik boshqa sohalarga o`tgan va umumiy tarzda madaniyat (ishlov berish) yaratish so`ziga aylangan. Yerga ishlov berish va o`simliklarni parvarish qilish madaniyati tufayli inson tabiatning farzandi sifatida uning bunyodkorlik qobiliyatini munosib ravishda davom ettirib kelmoqda. Tabiatdagi mavjud yuzlab o`simlik turlarini inson o`z qobiliyati va mehnati tufayli sun`iy ravishda madaniylashtirilib, qishloq xo`jalik mahsulotiga aylantirilgan. Albatta buning tarixiy ildizlari ancha qadimga borib taqaladi va dehqonchilikning rivojida suvning o`rni benihoya katta. Jumladan Buxoro vohasi uchun haqiqiy zar manbai bu – Zarafshon daryosi edi.¹¹

Qadim zamonlarda o`zining kuchli oqimi bilan Amudaryogacha yetib borgan Zarafshonning keyinchalik uzilib qolishi Zarafshon vohasi – Buxoro va Samarqand hududlarida minglab gektarlab yerlarning o`zlashtirilishi oqibati edi. Sug`orma dehqonchilikning doimiy o`sib borishi Zarafshon suvining yanada ko`proq sarflanishiga sabab bo`ldi va qachonlardir Amudaryoga qadar yetib borgan daryo endilikda vohaning o`zini suv bilan ta`minlay olmay qoldi. Oqibatda Buxoroning o`zida ham tez-tez suv tanqisligi sezilib turgan.

¹¹ Nizomov.A, Rahimova.G - Zarafshon: o`tmish va bugun. "Ma`rifat" gazetasi, 2001-y.

Mana shu sug`orilish ildizlarining o`zi qay tariqa yuzaga kelgan, degan savol avvalo oldimizda ko`ndalang turibdi. Biz bu masalani yechish uchun bir qancha tadqiqot materiallariga murojaat qilishimizga to`g`ri keladi.

Afsuski, antik davr yozma manbalaridan keltirilgan yuqoridagi umumiy ma'lumotlar Buxoro vohasining o`zlashtirilishi tarixiy jarayoni yuzaki kuzatish uchun ham mutlaqo yetarli dalil emas, shuningdek, biz tadqiqot etayotgan masalalar ham muayyan aniqlik kiritmaydi. Shuning uchun ham quyi Zarafshonning sug`orilish tarixi muammolarini yoritishda ko`proq arxeologik faktlarga suyanishga to`g`ri keladi. Chunki Buxoroning turli tarixiy davrlarga mansub bo`lgan va hozirgi kungacha saqlanib qolgan moddiy-madaniy yodgorliklari quyi Zarafshonning o`zlashtirilishi tarixi bilan chambarchas bog`liq bo`lib, vohaning sug`orilib obod etilishining uzoq tarixiy jarayonni o`rganishga tadqiqotchilar uchun behad boy faktik ma'lumotlar beruvchi yagona bosh manba hisoblanadi¹².

Quyi Zarafshonning o`zlashtirilishi dinamikasini aniqlash uchun, avvalo Buxoro vohasida, ayniqsa, uning qadimgi sug`orilgan yerlarida topib tekshirilgan arxeologik yodgorliklarning qisqa bo`lsa ham umumiy malumoti ustida to`xtab o`tish naqsadga muvofiqdir. Buxoroning qadimgi sug`orilgan yerlarning asosiy katta qismi Zarafshon daryosining quyi oqimida, uning delta xarakteridagi qadimgi yirik irmoqlaridan biri Vobkentdaryo etaklarida joylashgan bo`lib, u Buxoro vohasining g`arbiy va shimoli-g`arbiy chegarasida yondashgan. Janubdan shimol tomon qariyb 55 km cho`zilgan bu dehqonchilik massivining maydoni taxminan 100-120 ming gektarga teng bo`lib, uning tashqi chegarasi vohaning shimoli-g`arbiy qismida-hozirgi obod yerlar zonasidan 10-

¹² Muhammadjonov.A - Quyi Zarafshon vodiysining sug`orilish tarixi. T., 1972-y. B-76

12 km, g`arbda esa qaryib 35 km tashqaridan Urganjiy dashtidan o`radi.¹³ Bu rayonning arxeologik manzarasi mezolit davrining ahyon-ahyonda uchrab turadigan chaqmoqtosh qurollaridan tortib, to antik davr va ilk o`rta asrlarning yirik inshootlari-xom g`isht va paxsadan bino qilingan qadimgi shaharlar, qal`alar va qasrlarning xarobalari hamda Qizilqumga tutashib ketgan suvsiz bu hududlarning qachonlardir sug`orilib obod etilishida xayotbaxsh rol o`ynagan qadimgi sug`orish tarmoqlarining qurib qolgan izlarini xam o`z ichiga olgan xilma-xil arxeologik yodgorliklarning kompleksi bilan ifodalanadi¹⁴.

Buxoroning qadimgi sug`orilgan yerlarida o`tkazilgan arxeologik tadqiqotlardan ma`lum bo`lishicha ilk o`rta asrlarda, ayniqsa IX-XI asrlarda quyi Zarafshonda bir qancha yirik sug`orish inshootlari qurilib, vohaning sug`orma dehqonchilik yer maydoni niyohatda kengaygan.

IX-XI asrlarda quyi Zarafshonda sug`orish ishlarining kengaygani tasodifiy voqea bo`lmay, balki Arab xalifaligi hukmronligi tugatilgach, o`z mustaqilligini tiklab olgan Movarounnahrda, avval Somoniylar, so`ngra Qoraxoniylar kabi yirik feodal davlatlarning tashkil topishi tufayli mamlakatda sodir bo`lgan iqtisodiy va madaniy taraqqiyot bilan chambarchas bog`liq edi. Bu davrda faqat Buxoro vohasigina emas, balki butun Zarafshon vodiysi to`la sug`orilib obod etilgan.

X asr mualliflari ma`lumotlarga qaraganda Buxoro vohasi Samarqandga nisbatan obod va keng bo`lgan. Uning obod yerlari 22 rustoqqa (manzilgoh) bo`lingan. Bu rustoqlardan 15 tasi vohaning atrofini o`ragan qadimgi mudofaa istehkomi – Kampirakning ichkarisiga 7 tasi uning tashqarisida joylashgan¹⁵.

¹³ Muhammadjonov.A - Quyi Zarafshon vodiysining sug`orilish tarixi. T., 1972-y. B-77

¹⁴ O`sha asar. B-77

¹⁵ Бартольд.В.В, Сочинения т. I, “Туркестан в эпоху монгольского нашествия”. М., 1963-г, С-163-168

Narshaxiy va Istarxiylar o`z asarlarida Buxoro rustoqlarini suv bilan ta`minlagan yirik magistral kanallardan 17 tasining ro`yxatini keltiradilar¹⁶.

Istarxiyning malumotlariga qaraganda, Buxoroni kesib o`tgan Zar kanali 12 shahobga bo`lingan¹⁷. Istarxiy va Hudud ul-olamda keltirilgan ma`lumotga qaraganda, Buxoro vohasining Kanpirak bilan o`rab olingan obod qismining uzunligi ham kengligi ham 12 farsax bo`lgan.

Buxoro vohasi Ismoil Somoniy hukmronlik qilgan davrda ayniqsa obod etilib, uning tashqi chegarasi Kanpirak devoridan ancha kengaytirilgan. O`z davlat chegarasining Kanpirak bilan cheklanishni istamagan Ismoil Somoniy devorni tiklab turish uchun sarflanadigan xarajat va qilinadigan xashar ishlarini bekor qilgan¹⁸.

Zarafshon vohasi o`zbeklarining ko`p qirrali qishloq xo`jaligi asrlar osha to`plangan an`anaviy tajribaga tayanadi. O`zbekistonning hozirgi hududi tabiiy-geografik shartiga ko`ra uchta qishloq xo`jaligi zonasiga bo`lish mumkin: tog`li va tog` oldi zonasi (20,5 %), sug`orma yerlar zonasi (18,5 %) va bepoyon dasht hamda yaylovlardan iborat bo`lgan zona.¹⁹ Ammo sug`orma yerlarning hammasi ham sug`orishga yaroqli emas. Tog` tizmalari va qum uyumlari orasida, daryo sohalarida joylashgan ziroatchilik vohalari esa qadimdan dehqonchilikning o`ziga xos markazlari bo`lib kelgan. Bunday hududlarga Farg`ona, Qashqadaryo va Surxondaryo vodiylarini, Zarafshon va Xorazm vohalarini misol qilishimiz mumkin. Shu jumladan quyi Zarafshon vohasining dehqonchiligi tarixiy ildizlari anchayin qadimiy davrlarga borib taqaladi.

¹⁶ Narshaxiy - Buxoro tarixi. B-34-35

¹⁷ Muhammadjonov.A - Quyi Zarafshon vodiysining sug`orilish tarixi. T., 1972-y. B-111

¹⁸ Muhammedov.H – O`zbekistonning qadimiy mudofaa inshootlari tarixidan. B-73-74

¹⁹ Jabborov I. O`zbek xalq etnografiyasi. T., 1994-y. B-89

Arxeologlarning ta'kidlashlaricha, qadimgi chorvador qabilalarning dehqonchilikka o'tishini chinakam inqilobiy hodisa deyish mumkin. Bu hodisa neolit – yangi tosh davriga to'g'ri keladi. Bunday holat O'rta Osiyoda to'rt-besh ming yillar muqaddam ro'y bergan va uzoq davr davomida rivojlanib kelgan.²⁰

Zarafshon vohasi dehqonlari boshqa hudud dehqonlari kabi eng qadimiy ajdodlaridan o'tgan sug'oriladigan dehqonchilikni, kichik va katta, oddiy va murakkab sug'orish inshootlari va tizimlari qurishni, dalalarni sug'orishning har xil usullarini agrotexnika usullarini yaxshi bilganlar. Zarafshon vodiysida neolit va bronza davrlaridan amal qilinib kelingan daryo suvlari ko'payganda suv bosadigan qayir va liman yerlardagi ziroatchilik to 30-yillargacha saqlangan.

Asli hayvon kuchi va omoch ishlatiladigan sug'orma dehqonchilik Zarafshon daryosi bo'ylarida miloddan avvalgi III – II mingyilliklardayoq keng tarqala boshlagan. O'sha darlardan Zarafshon vohasi unumdor yerlari o'zlashtirila boshlangan.

Asrlar osha mahalliy ziroatchilikda yer unumdorligini tiklash va agrotexnika uslublarini takomillashtirish, tuproqni og'itlashning har xil usullari paydo bo'lib, sug'orish va sho'rni yuvish kabi usullar keng joriy qilingan. Ayniqsa miloddan avvalgi I mingyillikda O'zbekistonning ko'pgina hududlarida yirik magistral kanallar qurish, har xil suv taqsimlash va suv chiqarish inshootlarini tiklash avj olgan. Zarafshon vohasida esa bu hol keyingi davrlarga to'g'ri keladi. Xususan davlatchilik rivojlangan paytlarda asosiy e'tibor sug'orma dehqonchilik rivojiga qaratilgani sir emas.

Mahalliy dehqonlar madaniy-etnik an'analar asosida dalachilik, polizchilik va bog'dorchilik sohasida turli usul va yo'llarni ishlab chiqqanlar. Ilk ziroatchilik davrlaridayoq ular nihoyatda foydali o'simliklarni, ayniqsa donli va

²⁰ Muhammadjonov.A - Quyi Zarafshon vodiysining sug'orilish tarixi. T., 1972-y. B-112

poliz ekinlarini va hatto bog`dorchilikni ham o`zlashtirganlar. Tadqiqotlarga qaraganda Zarafshon vohasi aholisi so`nggi bosqichdagi neolit va eneolit davrlarida bug`doy arpa, tariq va boshqa donli ekinlar, o`rik, olma, nok kabi mevalarning ayrim navlarini xonakilashtirganlar.²¹

Sug`orma dehqonchilikni mahalliy aholi “suvli yer”, “tirama”, “obikor” yoki “obi” yerlar deb ataganlar. Sug`oriladigan yerlar ekin turiga qarab dala yoki ochiq yerlarga, bog`dorchilik hamda polizchilik yerlariga bo`lingan. 1916-yilda Turkiston o`lkasining uchta viloyati bo`yicha (Sirdaryo, Farg`ona, Buxoro) 2,5 mln desyatina ekiladigan yerlarning 2/3 qismi sug`orma yerlar, qolgani bahori (lalmikor) yerlar hisoblangan. Sug`orma dehqonchilik nihoyatda katta mehnat natijasida amalga oshirilgan. Yirik sug`orish inshootlarini qurish va ularni muntazam ravishda o`z vaqtida tozalash va ta`mirlash ishlari katta mablag`larni, juda ko`p kishilarning uyushgan mehnatini talab qilgan. Bunday xarajatlar va og`ir mehnat dastavval keng zahmatkash aholi zimmasiga yuklangan hamda asriy jamoaviylik an`analari asosida amalga oshirilgan.

Ming yillar davomida to`plangan boy tajriba mahalliy aholining murakkab suv xo`jaligi tartibi va texnikasini yaratish va uni tashkil qilish hamda amalda joriy etish yo`lida muayyan an`anani yuzaga keltirgan edi. O`tgan asrda bunday ishlarning jonli guvohi bo`lgan bir muallif o`z mulohazalarini quyidagicha izohlaydi: “Zarafshon vohasida irrigatsiya tizimi suv orqali hammaga hayot bag`ishlashi bilan qon tomiri tizimiga tamomila o`xshab ketadi. Turmushda suv ana shunday ehtiyot qilingan. Suv bor joyda boyluk, ekinzorlar, polizlar, bog`-rog`lar, bir necha chaqirim uzoqlashsangiz qaqrab yotgan dashti biyobon...”²²

²¹ Jabborov.I – O`zbek xalq etnografiyasi. T., 1994-y. B-90

²² Женкинсон.А - Путешествие в землях Бактрии Т., 1968-г

O`zbekiston tabiiy-geografik sharoiti turlicha bo`lganligi bois xilma-xil sun'iy sug`orish usullaridan foydalanilgan. Soy oqavasi, havza va hovuzlarda suv to`plash, chig`iriqlar orqali chuqurdan suv chiqarish, kanal va ariqlar orqali suv keltirish qadim zamonlardanoq saqlanib qolgan. Ariq va kanallarga daryolardan saqa orqali suv chiqarish usuli juda keng tarqalgan. Bu nisbatan qulay va ishonchli usul bo`lsada, aslida nihoyatda murakkab va sermehnat ish hisoblangan. Magistral kanallar vohadagi yerlarni sug`orish uchun qazilib, daryo qirg`oqlarining holatiga qarab uning o`ng va chap sohilidan qazib chiqarilgan.²³ Mazkur kanallardan shaxobchalar, so`ngra ulardan mayda sug`orish tarmoqlari ajralib chiqqan.

Katta-kichik kanallarga va ariqlarga oddiy to`g`onlar qurish yo`li bilan suv chiqarish texnikasi keng tarqalgan. Shox-shabba, ajriq o`tlar, kesak-toshlardan maxsus qorabura yoki bard yasalib daryoning sekin oqadigan joylariga tashlanib to`g`on qilingan. Ba`zan bunday to`g`onlar murakkab irrigatsiya inshootini hosil qilgan. Qoraburaning yo`g`onligi ba`zan bir necha metr, uzunligi esa bir necha o`n metr qilib tayyorlangan. Masalan, sug`orma dehqonchilikning klassik o`lkasi hisoblangan Buxoroda barcha kanal va ariqlar har yili kuzda qazib tozalangan, keyin to`g`onlar ochilib, ariqlarga suv yuborilgan.

Suv inshootlari va suv bo`yidagi ekin yerlari uchun asosiy xavf suv toshqini hisoblangan. Bunday suv toshqinlari deyarli barcha daryolarda kuzatilgan. Asosan kuchli sel kelishi natijasida daryolarda suv ko`tarilib, qirg`oqdan chiqqan va kanallarning bosh qismini yemirgan. Bunday holatlar doimo bo`lib turganligi bois mahalliy aholi sug`orish inshootlarini suv toshqini paytida daryolarning ko`tarilishini e`tiborga olib qurishga intilgan. Asrlar davomida to`plangan tajriba asosida odamlar hatto toshqinning xavf tug`dirishi paytini

²³ Muhammadjonov.A - Quyi Zarafshon vodiysining sug`orilish tarixi. T., 1972-y. B-36

oldindan bilganlar. Masalan, dastlabki toshqinlar Zarafshon vohasida aprel oyining boshlarida yuz bergan va u marzob deb yuritilgan (Xorazmda “sunnik” yoki “qamish toshqini”). Ikkinchi toshqin juda kuchli bo`lib anchagina loyqumlarni va toshlarni oqizib katta xavf tug`dirgan. Bu toshqin sug`orish davriga, ya`ni may oylariga mahalliy aholi tili bilan aytganda jiyda gullagan vaqtlarga to`g`ri kelgan. Bu toshqinni Zarafshon ahli “loyob” deb nomlagan. Uchinchi marta yuz beradigan toshqin esa iyun oyiga to`g`ri kelgan. Bu toshqin Zarafshon mahalliy aholisi orasida “charmob” deb yuritilgan.²⁴

Balandlikda joylashgan ekin yerlariga suv chiqarish maqsadida chig`ir va charxparraklar qo`llanilgan. Chig`irning asl vatani Xorazm bo`lib, u hayvon kuchi bilan harakatga keltirilgan. Biriktirib qo`yilgan digirlar – kosalar suvni yuqoriga ko`tarib, maxsus ariqchaga quygan. Zarafshon vohasida chig`irlardan foydalanish u qadar ko`p bo`lmagan. Mahalliy ziroatkor aholi asosan suvning o`z kuchi bilan harakatga keladigan charxparraklardan foydalanganlar.

Buxoroning dasht qismida yashovchi chorvador aholi azaldan kichik tomorqa dehqonchiligi bilan shug`ullanib kelganlar. Ular o`zlarining poliz va boshqa kichik ekinlarini quduq suvi bilan sug`organlar. Quduqdan oddiy moslama – qovg`a yoki mesh paqirni arqon bilan ko`pincha hayvon kuchi bilan tortib chiqarib suv olingan. Suv taqchil joylarda quduqdan sug`orish 20-yillarning oxirlariga qadar sug`orish usuli bo`lib kelgan.

Mahalliy aholi – dehqonlar uchun yilning ma`lum paytlarida eng og`ir hashar ishlari boshlangan. Barcha sug`orish inshootlarini har yili tozalab turish shart bo`lgan. Chunki loyqa suv bir yilda ariqlarni loy bilan to`ldirib qo`ygan. Yirik kanallar qazish va ularga to`g`onlar qurish ayniqsa og`ir bo`lib, bu ishlar asosan qish yoki erta ko`klamda bajarilgan va juda ko`p ishchi kuchi talab

²⁴ Jabborov I. - O`zbek xalq etnografiyasi. T., 1994-y. B-93

qilgan. Misol tariqasida Zarafshon vohasidagi minglab kishilar jalb etilgan quyi Zarafshondagi ariqni tozalash ishlari 15 kun davom etganini aytishimiz mumkin.

Buxoro vohasi dehqonlari yerni botqoqlanishdan saqlash choralarini azaldan bilganlar. Botqoq yerlarning suvini qochirish uchun zovurlar qazilgan. Masalan Buxoroga yaqin joyda qazilgan Temur Zaxkash deb atalgan zovur anchagina qadimiy.²⁵ Suvsizlik yoki suv bosish xavfi mahalliy dehqonlarni turli-tuman marosimlar o`tkazish va har xil irimlarga amal qilishga undagan.

Sug`orish tizimining keyingi davrlardagi holati, jumladan sobiq sovet hukumati davrida anchagina rivojlangan bo`lsada, Buxoro, Xorazm va Qoraqalpog`iston hududlarida og`ir ekologik xavfni yuzaga keltirdi.

Zarafshon vohasi dehqonlarining ziroatchilik xo`jaligi va an'anaviy agrotexnikasi.

Ziroatchilik xo`jaligining rivoji birinchi galda uning texnikaviy jihozlanishi va agrotexnik bilim darajasiga bog`liq. Buxoro vohasi dehqonchiligi asrimiz arafasida nisbatan qoloq moddiy-texnika bazasiga ega bo`lgan edi. Arxeologik ma'lumotlarga qaraganda viloyatimizning ba'zi hududlarida ziroatchilik qurollarining ko`pchiligi, ayniqsa yer haydash va ekin o`rish qurollari ming yillar davomida o`zgarmay, XX asrda ham saqlanib kelgan.

Ba'zi bir qadimiy sodda qurollar qishloq joylarida bugungi kunda ham ishlatiladi. Masalan haydalgan yerni tekislash uchun ishlatiladigan taxta mola yoki dandana (tishli sixli mola) hozirda ham qo`llaniladi. Yer ishlarida esa belkurak, ketmon, kapcha (kichik belkurak), hosil yig`ishda o`roq va xirmonda panjshoxa, g`alvir, chig`il kabi qurollardan bugungi kunda ham foydalaniladi.

Qishloq xo`jaligining barcha sohalarida, ayniqsa ziroatchilikda eng muhim mehnat qurollari – omoch, ketmon, belkurak va o`roq hisoblangan. Mazkur

²⁵ Aminov.I – Buxoro hududidagi zovurlar, “Romitannoma”, 1999-y.

qurollarning mahalliy turlari biroz farq qilgan. Omochning o`zi ham yerning ahvoliga qarab katta va kichik molaga bo`lingan. Ammo Zarafshon vohasida yerni ag`darishning eng yaxshi quroli sifatida ketmondan foydalanilgan.

Ketmon va belkurakning mahalliy turlarini kartograflashtirish natijasida quyidagi xulosaga kelingan: XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro viloyati tumanlarida ketmondan ham, belkurakdan ham keng foydalanilgan. Inchunin Toshkent va Farg`onada asosan ketmon, Xorazm va O`rta Amudaryoda asosan belkurak ishlatilgani ma'lum.²⁶

Yerga ishlov berish asosan yerni bir necha marotaba haydash, mola bosish, suv va o`g`it berishdan iborat. Ko`p asrlik tajriba natijasida mahalliy dehqonlar ekinlarni almashlab ekish yo`llarini kashf etganlar. Almashlab ekish nafaqat o`simliklar xususiyatini bilishga, balki faslga qarab tuproqning xususiyati, sug`orish imkoniyatlari va boshqa ziroatchilik sirlarini ham egallashga bog`liq.

Don ekinlari Buxoro vohasida XX asrning 30-yillariga qadar asosiy o`rinni egallagan. 1915-yilda Buxoro amirligida yerlarning 2/3 qismi g`alla bilan band bo`lgan.²⁷ Bug`doyning oq bug`doy, qora bug`doy va ushturdandon navlari keng yetishtirilgan. Bug`doy, jo`xori, arpa, sholi kabi ekinlar ekilishidan oldin yerlar kuzda ishlov berib tayyorlangan. Bahorda shudgorlangan yerlar omoch bilan bir necha marta qayta haydalgan. So`ng qo`lda urug` sepib chiqilib, ustidan mola tortilgan. Donli dalalarga faqat ikki marta suv berilgan: birinchisi endi unib chiqqan paytda, ikkinchisi boshoq otish oldidan. Barcha don ekinlari, beda va xashak o`roq bilan o`rilgan. Mahalliy o`roqlar deyarli bir xil, faqat katta-kichikligi va tig`ining shakli bilan farq qiladi. Shuningdek, ularning nomlari ham turlicha bo`lib, kichik o`roqlar kashkort deb nomlangan.

²⁶ Jabborov.I - O`zbek xalq etnografiyasi. T., 1994-y. B-101

²⁷ O`sha asar. B-103

O`rilgan g`allani xirmon qilib ot, ho`kiz yoki eshak bilan tepkilab yanchilgan va ayri, seshoxa, chorshoxa yoki yog`och belkurakcha bilan shamolga sovurilgan. Ba`zi xo`jaliklarda ishchi mol yetishmaganligi tufayli yog`ochdan chopar, kichik xirmonlarda yog`och to`qmoq yoki daskun ishlatilgan.

Dehqonchilikda fenologik bilimlarning ahamiyati ham juda katta. Ilmiy meteorologiya va astronomiyadan bexabar dehqonlar asrlar davomida tabiatni kuzatish natijasida oddiy astronomiya bilimlari asosida xalq kalendarini ishlab chiqqan. Qishloq xo`jaligida zarur bo`lgan kalendar 90 lik tizimdan iborat bo`lib, har fasl 90 kunga bo`lingan: bahorgi to`qson (hamal, savr, javzo), yozgi to`qson (saraton, asad, sunbula), kuzgi to`qson (mezon, aqrab, qavs) va qishki to`qson (jaddiy, dalv, hut).²⁸ Yozgi jaziramada issiq va qishki sovuq davrlar katta va kichik chillaga bo`lingan. Bahorning kelishi hamaldan, ba`zi janubiy tumanlarda esa hutdan boshlanadi. Shu sababdan ham “Hut keldi-qut keldi” yoki “Hamal kirdi-amal kirdi” singari gaplar bekorga aytilmagan. Bahor oyining kutilishi, ya`ni dehqonchilik ishlarining boshlanishi asli yulduzlarga, ilk qushlarning uchib kelishi va boshqa fenologik kuzatishlarga qarab belgilangan.

Dehqonchilikdagi texnik ekinlarga keladigan bo`lsak, Buxoro vohasida eng asosiy texnik ekin paxta hisoblangan. Chor Rossiyasi davrida ham paxta dalalari kengaytirilgan bo`lsada, Buxoroda paxta dalalari jami yerning 6,2 % ini tashkil etgan bo`lsa, sovet davriga kelib paxta yakka hokimligi an`anaviy dehqon xo`jaligini butunlay izdan chiqardi.

A.Muhammodjonovning fikricha, Buxoro vohasi dehqonchiligi va sug`orish tizimiga asosiy zara yetkazgan kishilar bu mo`g`ullar hisoblanadi. Ammo tarixiy manbalarda Buxoroning iqtisodiy va madaniy hayotiga oid manbalarning kamligi, buning ustiga Zarafshon vodiysining quyi qismida joylashgan

²⁸ Narziqulov.A - Dehqon taqvimi. T.,1991-y. B-5

arxeologik yodgorliklarning XIII – XIV asrlarga mansub boʻlgan madaniy qatlamlarida keng koʻlamda qazish ishlari olib borilmagani bois biz Buxoro vohasining irrigatsiya xoʻjaligiga moʻgʻullar istilosi yetkazgan shikastlari va ularni tuzatish uchun XIII oxiri XIV asr birinchi yarmida olib borilgan irrigatsiya xoʻjaligining qayta qurilishi haqida mufassal fikr yurita olmaymiz. Biroq shunga qaramasdan moʻgʻullar istilosidan keyin Buxoro vohasidagi ayrim qishloqlar va shahar atrofi irrigatsiya xoʻjaligining umumiy holatini xarakterlab beruvchi baʼzi bir maʼlumotlarni arxivlarimizdagi XIII asr oxiri XIV asr boshlarida tuzilgan vaqf hujjatlaridan bilib olishimiz mumkin. Bu borada Buxoroning ilk oʻrta asrlaridagi obod rustoqlaridan biri Somjan tumanida joylashgan Xamina qishlogʻidagi Xoʻja Xamina mozoriga vaqf qilingan yerlarning 1299-yilda tuzilgan vaqfnomasida keltirilgan baʼzi dehqonchilik manzillarining toponimikasi diqqatga sazovor.²⁹

N.F.Sitnyakovskiy tomonidan tuzilgan Buxoro vohasining XIX asr oxirlaridagi ziroatkor qishloqlari va ariqlarining roʻyxatida Navfaj, Margʻosun, Gushak qishloqlarining nomini uchratishimiz mumkin. Aynan shu qishloqlar XIX asr oxiri, XX asr boshlarida tuzilgan Buxoroning topografik xaritalarida ham koʻrsatilgan. Hozirgi Buxoro viloyati Romitan tumanining gʻarbiy qismida joylashgan bu qishloqlarning aynan joyini oladigan boʻlsak, Buxoro vohasi obod dehqonchilik hududlarining gʻarbiy chegaralari XIII asrlarda ham shu yergacha yetganini koʻrish mumkin.³⁰ Chunki, 1299-yildagi Somjan va Xaminaga tegishli vaqf hujjatlarida bu qishloqlar nomi ham qayd etilgan.

Endi bevosita Buxoro vohasi sugʻorish tarmoqlariga moʻgʻullar yetkazgan zararga qaytadigan boʻlsak, XIV asrning ikkinchi choragida qayta tiklash

²⁹ Muhammadjonov.A - Quyi Zarafshon vodiysining sugʻorilish tarixi. T., 1972-y. B-114-115

³⁰ Oʻsha asar. B-115

ishlarining biroz jonlanganini ko`ramiz. Ayniqsa sohibqiron A.Temur davrida olib borilgan bunyodkorlik ishlari voha dehqonchiligining rivojiga ancha katta hissa qo`shdi. Amir Temurdan keyin nabirasi Mirzo Ulug`bek davrida ham Zarafshon vodiysi, xususan Buxoro vohasi dehqonchiligi va sug`orish tarmoqlariga e`tibor susaymagan. Jumladan Badriddin Kashmiriyning “Ravzatur rizvon va hadiqat ul-g`ilmon” nomli asarida keltirilgan ayrim ma`lumotlarga qaraganda Ulug`bek davrida (1409-1449 yy) Buxoro vohasining janubi-sharqiy chegarasiga yondashgan Somonjuq dashtiga suv chiqarilib, obod etilgan.³¹ Bu hududdagi yerlarni o`zlashtirib, ekin ekkan dehqonlar uch yil muddatga soliqlardan ozod etilgan va katta imkoniyatlar yaratib berilgan. Shubhasiz bunday amaliyotlar voha dehqonchiligi rivojiga ijobiy ta`sir o`tkazgan.

Umuman olganda shuni aytish mumkinki, Buxoro vohasida dehqonchilik madaniyati kuni kecha paydo bo`lgan emas. U ancha qadimiy tarixiy ildizlarga ega. Bundan tashqari, bu dehqonchilik anchagina yuqori madaniyatga ega bo`lib, uni chuqur tahlil qilish tarixchi va etnograflar oldidagi muhim vazifalardan biridir.

³¹ Muhammadjonov.A - Quyi Zarafshon vodiysining sug`orilish tarixi. T., 1972-y. B-117

II bob. Taqvimlarda dehqonchilik madaniyati

Turkiston zaminida yashab kelayotgan xalqlar taqvim-yil hisobidan foydalanishda dunyoning eng madaniy xalqlaridan biri hisoblanadilar. Bu o`lkada taqvimlarga amal qilish qariyb uch ming yildan buyon davom etib keladi. Shu davr mobaynida Turkiston xalqlari qadimgi turkiy, xorazmiy, sug`d, avesto (qadimgi eron), yazdigir, Hijriy-shamsiy, Hijriy-qamariy, milodiy yil hisoblaridan foydalanganlar. Taqvimlar dehqonchilik madaniyatida chuqur o`rin egallaydi. Dehqonchilik taqvimlari shamsiy kalendarga asoslangan bo`lib, u xalqning azaliy urf-odatlarini, an`analari, boy tajribasi va kechmishlariga qarab tuzilgan. Taqvimlardagi har bir oyda dehqonlar ma`lum bir ishlarni rejalashtirganlar. Quyida shularga batafsilroq to`xtalib o`tamiz.

Avvalo taqvimlardagi oylarni ko`rib chiqaylik:

Hamal (22-martdan – 20-aprelgacha), savr (21-apreldan – 21-maygacha), javzo (22-maydan – 21-iyungacha), asad (23-iyuldan – 22-avgustgacha), sumbula (23-avgustdan – 21-sentyabrgacha), mezon (22-sentyabrdan – 20-oktyabrgacha), aqrab (21-oktyabrdan – 18-noyabrgacha), qavs (19-noyabrdan – 18-dekabrgacha), jadiy (19-dekabrdan – 18-yanvargacha), dalv (19-yanvardan – 18-fevralgacha), hut (19-fevraldan – 21-martgacha).

Hamal oyida quyoshning tikkaga ko`tarilishi tezlashib, uning nuri va issiqligi yerga tobora ko`proq yetib kelaveradi. Masalan 22-martdan kecha bilan kunduz teng o`n ikki soatdan bo`lsa, hamal oyi oxiriga borib, kun uzunligi o`n to`rt soatlarga yetadi.³²

³² Narziqulov.A – Dehqon taqvimi. T., 1991-yil. B-16

Xalqimiz orasida bu oyning kechishi, o`ziga xos iqlim sharoiti, ob-havosi, shuningdek, boshqa xislat-xususiyatlari haqidagi hikoyat-u rivoyatlar, uzoq kuzatish va tajribalar asosida paydo bo`lgan xulosalar, maqollar, o`g`itlar ko`p. Kishilar dehqonchilikdagi ishlar muddatini belgilashda ulardan keng foydalanib kelganlar. Ilgari har bir oyning bunday o`ziga xosliklarini puxta bilmay, ishda yutqazib qo`ygan dehqonni haqiqiy dehqon sanamaganlar. Ko`p joylarda qishloq kishilarining o`z hisobdonlari, tajribali, bilag`on qariyalari bo`lgan. Bunday kishilar dehqonlar orasida qurrachilar deb atalgan. Tevarak-atrofdagi dehqonlar o`z ishlari borasida ulardan vaqti-vaqti bilan maslahat olib turganlar.

Har bir oy, har bir faslning o`ziga xos taomili va qonuniyatlari bor. “Hamal kirdi – amal kirdi” deydilar. Bu iboraning mazmuni har qadamda ko`rinib o`z ifodasini topib turibdi. Chunonchi, kechalari harorat anchayin past bo`lishiga qaramay, dala-qirlar ko`m-ko`k maysaga burkanadi, daraxtlar gullab, ko`kimtir tus oladi. Bir so`z bilan aytganda butun tabiatda, zaminda uyg`onish, amalga kirish davri boshlanadi.

Keksa dehqonlar hali hutdayoq tayyorgarlik ishlarini qizitib yuboradilar. Asosan sabzavot va poliz ekinlarini ekish avj oladi. Ayniqsa plynka (kichik parnik) ostiga ekiladigan ertagi ekinlar – bodring, handalak kabilarning qatorlariga ishlov berish boshlanadi. Umuman olganda dala mehnatkashlari uchun g`oyatda muhim oy hisoblanadi.

Hamal oyida mo`tadil ob-havo dehqonlar uchun juda muhim. Ammo hamal har yili birday kelavermaydi. Normadagi o`rtacha yog`ingarchilik miqdori 50 millimetr bo`lsada, ba`zi yillarda butunlay qurg`oqchil, ba`zi yillarda esa aksincha ikki-uch baravar ko`proq yog`ingarchilik bo`lishi mumkin. Ammo ko`pincha hamalda yog`ingarchilik, savrda quruq iqlim hukmron bo`ladi. Shu

sabab bo`lsa kerak, xalq orasida “Hamal-yig`loq, savr-qurg`oq” degan hikmatli ibora ham bor.³³

Keksa dehqonlar bilan suhbatlashganimda ularning fikrlariga ko`ra, hamalda yomg`ir, sel va hatto jala hamda do`l yog`ishi, haroratning tez-tez pasayib turishi ehtimoldan xoli emas. Aprelning boshlarida suv muzlashi hodisasi ham kuzatilishi mumkin.

Savr oyida har yili ob-havo va tabiiy sharoit o`zgarib turadi. Ba`zi yillar yog`ingarchilik haddan oshib ketadi va “Shishayi savr” deb ataluvchi sovuqlar bo`ladi. Momaqaldiraq, sel va hatto jala quyishi ham mumkin. Shuning uchun ham xalq orasida “Bu oyning boshi, beshi va o`n beshidan qo`rq” degan gaplar yuradi. Savrning o`rtalari (11-15) ham o`zgaruvchan.

Savr oyida quyosh tikkaga yanada ko`proq ko`tariladi, kunlar uzayadi. Oyning oxiriga kelib kunlar uzunligi 17 soatga yetadi. G`alla dalalarida maysalar ko`m-ko`k ko`rinish oladi, shifobaxsh o`simliklar o`sadi.³⁴

Dehqonlarimiz orasida “Savr oyi – sabr oyi” degan gaplar ham bor. Sababi tabiat biroz sabr qilib turgandek, daraxtlar va ekinlar harakati sekinlashgandek bo`ladi. Ammo baribir o`sinh davom etadi. Oy o`rtalaridan oshgach, yangi kartoshka va sabzilar sotuvga chiqarila boshlanadi.

Javzo oyining birinchi yarmida bulutli kunlar kuzatilsa-da, aynan shu oydan boshlab yoz issiqligi hokimlikni o`z qo`liga oladi. XIX asr oxirlari – XX asr boshlarida daryo bo`ylarida yashovchi dehqonlar javzo oyida anchagina tashvishga tushganlar. Daryo sohillari, to`g`onlar va ariq bandlari

³³ Narziqulov.A - Dehqon taqvimi. T.,1991-y. B-18

³⁴ O`sha asar. B-21

mustahkamlangan. Qirg`oqqa yaqin joylarda har ehtimolaga qarshi to`siq maqsadida ishlatish mumkin bo`lgan shox-shabbayu toshlar keltirib qo`yilgan. Buning sababi oy o`rtalaridan oshgach, yuqorida garmsel shamollar oqimi tezlashgan va yuqori manbalarda qor erishi tezlashib, daryolar toshgan. Jumladan XIX asr oxirlarida Zarafshon daryosining o`zi besh marta o`z sathidan toshgan. Shu sababli kuchli oqimdagi bo`tana suv kattagina ekin maydonlarini supurib ketgan. XX asrning 40-yillariga qadar Zarafshon vohasida toshqinlar katta umumxalq hashariga aylanib ketgan. Shu sabab ham Buxoro dehqonlari orasida o`sha davrlarda “doroyi alo shud, in daryo balo shud” degan gap bor.³⁵ Doroyi bu ertapishar uzum navi bo`lib, javzoning boshlaridanoq xol tashlab qizara boshlagan va olacha ko`rinish olgan.

Shunga qaramay javzoda dala ishlarining nihoyatda qizg`in va mas`uliyatli pallasi davom etadi. Dehqonlarimiz javzo va qavsni qiyosiy olib borganlar. Masalan, agar javzo issiq kelsa, qavs sovuq bo`lgan. Mabodo javzo salin bo`lsa, qavs oyida havo harorati birmuncha ko`tarilgan. Dehqonlarimiz shunga qarab dala ishlarini rejalashtirganlar.

Asad oyida yozning inqirozi-yu, kuzning boshlanishi bilan bog`liq ko`pgina belgilar tez-tez namoyon bo`ladi. Kunduzlar qisqarib, kechalar uzaya boshlaydi.

Xalq hisobdonlari asad oyida bo`ladigan turli o`zgarishlarga va issiq o`lkalarga safar qiluvchi qushlar harakatiga qarab kuz ob-havosining qanday kelishini bashorat qiladilar. Chunonchi dehqonlar orasida shunday iboralar yuradi:

“Oyning ikkinchi o`n kunligida cho`l qushi – qorabovurlar to`da bo`lsa kuz erta boshlanadi”.

³⁵ Narziqulov.A - Dehqon taqvimi. T.,1991-y. B-24

“Asadning so`nggi haftasi quruq kelsa, kuz yaxshi bo`ladi”.

Boshqa oylar kabi asadning o`ziga xos xususiyatlari, ayniqsa saxovatlari ko`p. Shu vaqtda dehqonlar ta`biri bilan aytganda yerlarga baraka inadi. Imkoniyatlarni qo`ldan boy bermaslik maqsadida dehqonlar tinib-tinchimay mehnat qiladilar. Shu sabab ham “Asad – ekiningni yasat” deb bekorga aytishmaydi.

Sohibkor dehqonlar, polizchilar mehnatining samarasi shu oyda ro`yobga chiqadi. Bozorlar qovun-tarvuzga to`ladi. Bog`bonlar orasida kuzgi payvandlash ishlari boshlanib ketadi. Sabzavot paykallari ham to`kin-sochinlashadi. Pomidorlar g`arq pishadi. Bodring, piyoz, baqlajon, bulg`or qalampiri kabilar serob bo`ladi. Birinchi hosildan bo`shagan dalalarga kechki kartoshka va boshqa ekinlar ekiladi. Dehqonlar taomiliga ko`ra “Asad kirdi, yotma tek, bo`sh qolgan yeringga jo`xori ek, sholg`om ek” deyishadi.³⁶

Sumbula o`zining salqin va yoqimli ob-havosi bilan huzurbaxsh. Bu oyda dehqon mehnatining samarasi yanada ko`proq namoyon bo`laveradi. Paxta qiyg`os ochilib, yig`im-terim boshlanib ketadi. Mo`l-ko`lchilik oyi sifatida hozir bo`luvchi bu oyda dehqonlar ira tinchimaydilar. Oy oxirlarida keng ko`lamdagi shudgor ishlari ham boshlanadi.

Sumbula bilan bog`lliq hikmatli iboralar:

“Sumbula yoz bilan qish o`rtasidagi g`animat fursat, uning har bir kuni va har bir daqiqasining qadriga yetish kerak”;

“Sumbula chiqishi bilan avval izg`irin bobo, so`ng qorbobo eshik qoqadi”;

³⁶ Narziqulov.A - Dehqon taqvimi. T.,1991-y. B-32

“Sumbulada suv tinir” kabilar.³⁷

Shu oyda yerning ichki harorati qayta boshlaydi va hosil yig`uvchilarni shoshiltiradi. Kechalar sezilarli cho`zilganligi ma'lum bo`ladi.

Sumbulada yog`ingarchilik deyarli bo`lmaydi. Havo harorati o`rtacha 15-20 gradus atrofida bo`ladi. Keksa dehqonlarning aytishicha, sumbulada ba'zan anchayin issiq yoki anchagina sovuqlar ham kuzatilgan. Ammo sovuq kunlar asosan mezon oyidagi kuzgi tengkunlikdan so`ng boshlanadi.

Mezon oyi ob-havosi ancha o`zgaruvchan. Oy davomida o`rtacha harorat 14-20 darajani tashkil etadi. Ba'zi yillari tabiat bu qoidaga o`zgartirishlar kiritadi.

Xalq hisobdonlari, tajribali dehqonlar o`zlarining hayotiy kuzatishlaridan kelib chiqqan holda mezon oyining o`ziga xos xislat va xususiyatlarini, dehqonchilikdagi bir qator ishlar muddatini aniq belgilab, unga og`ishmay amal qilganlar. Bu haqda ko`pgina hikoyat-u rivoyatlar, o`git-u maqollar ham yuzaga kelgan. Chunonchi:

- Mezon kirdi, naqding qo`ldan oldirma, hosilni yig`, aqrabgacha qoldirma;
- Mezon kirdi, hisobingni top, kabi hikmatlar bejiz aytilmagan albatta.

Dehqonlarning aytishlaricha, mezon shamoli va oftobida ayniqsa hikmat ko`p. Shu sababli tadbirkor dehqonlar taomilga ko`ra qishga saqlanadigan mahalliy mevalar va poliz mahsulotlari – oshqovoq va qovun tarvuzlarni asosan mezon shamoli tekkandan so`nggina yig`ib olishadi.³⁸ Navro`z kunlariga atab saqlanadigan qovun-tarvuzlar esa uzilganidan so`ng ham yana o`n – o`n ikki kun

³⁷ Narziqulov.A - Dehqon taqvimi. T.,1991-y. B-35

³⁸ O`sha asar. B-41

mezon oftobiga yoyib qo`yiladi. Buxoroning janubiy tumanlarida bu holatni ko`proq kuzatishimiz mumkin.

Mezon oyida g`allakor dehqonlar kuzgi bug`doy ekishni boshlab yuboradilar. Bu oyda ekilgan don maysasi tez unadi va sovuq tushgunga qadar panjalab qoladi. Yerga mustahkam ildiz yoyib ulguradi. Qish o`tib, qor ko`tarilgach, bu maysalar yana gurkirab o`sa boshlaydi. Yig`im-terim ishlarini ham asosan shu oydayoq yakunlash kerakligi ko`p ta`kidlanadi.

Aqrab mintaqamiz iqlim sharoitiga ko`ra bir qadar past harorat bilan kirib keladi. Shuning uchun ham dehqonlar orasida aqrabga bog`liq turli hikmatlar mavjud:

- Kuzgi donni aqrabgacha maysalat;
- Dehqon bo`lsang aqrab o`tmay shudgor qil;
- tokni aqrabgacha ko`mmasang, pand yeysan.³⁹

Qavs oyi qishning sovuq kunlarini o`zida namoyon etuvchi oy hisoblanadi. Bu oyda yer mag`zidan ko`tariluvchi iliq taft pasayadi. Kechalari shudgor qilingan yerlar yuzasi muzlaydi. Suvlar loyqasi cho`kib, tiniqlashadi. Dehqonlarning aytishlaricha, qavs suvi nihoyatda singuvchan bo`ladi. Shu sababli ham dehqonlar qavs oyida yerlarini to`ldirib sug`oradilar. Bunday yerlar yozdagi suv taqchil paytlarda bardosh bera oladi. Qolaversa, qavs suvi yerga singlar ekan, yer qatida, daraxt ildizlari ostida qishlayotgan zararkunandalarga va yer kasalliklariga qiron soladi.⁴⁰ Bu kelasi yilda hosilga ancha katta umid bag`ishlaydi.

³⁹ Narziqulov.A - Dehqon taqvimi. T.,1991-y. B-44

⁴⁰ O`sha asar. B-48

Jadiy oyi qishning eng sovuq chillasini o`z ichiga oluvchi oydir. Chillaning dehqon xo`jaligi uchun xususiyatlari o`zgacha. Binobarin, “sifatli shudgor kelgusi yil mo`l hosilning garovi” deymiz. Chuqur haydalgan yer chillada rosa muzlaydi. Natijada bunday maydonlarning tuproq tarkibi yaxshilanadi, hosildorligi oshadi. Qishlov uchun yashiringan hasharotlar, begona o`t ildizlari-yu urug`lari qiriladi. Agar shudgordan oldin mahalliy o`g`it – go`ng tashlangan bo`lsa bu yanada foyda beradi.

G`allakor dehqonlar chillada qalin qor yog`ishini istashadi. Chunki qalin qor bug`doy maysalari ustini ko`rpa misol yopib, sovuqdan saqlaydi. Erta bahorda esa bu qor ko`rpasi eriydi va singuvchan qor suvi maysalar ildiziga kuch beradi. Qolaversa qor nomi uzoq saqlanadi. Shu sababli ham “Jadiyda qor yog`di, xirmonga don yog`di” deyishadi.⁴¹

Dehqonlarning aytishlaricha, yoz oylarida suv tanqisligi ko`p seziladigan Buxoro vohasida ekinlarni chilla suvidan qondirish juda muhim ekan. Chunki shunda ekinlar suvni yozda bir marta kam talab etar ekan.

Dalv oyi dehqonlar tomonidan kichik chilla deb aytiladi. Kichik chilla ob-havosini dehqonlar saratondayoq bashorat qilishadi. Ularning aytishicha, saratonning o`n uchidan o`n sakkiziga qadar 40-45 darajadan oshgulik issiq bo`lsa, dalvda shu daraja sovuq bo`lishi yoki qattiq izg`irinli bo`ronlar bo`lishi kuzatilar ekan.

To`qsonning yarmi oqqach (8-fevraldan boshlab) qantar og`adi. “qantar og`sa qor turmas” deganlaridek, qorlar erishi tezlashadi va yerning ichki harorati

⁴¹ Narziqulov.A - Dehqon taqvimi. T.,1991-y. B-54

uyg`onadi.⁴² Quyosh nuri tikroq tushadigan yerlarda bug` ko`tarilishi kuzatiladi. Tabiatda bir qator jonlanish ro`y beradi.

Dehqonlar ko`klamgi ekish mavsumiga tayyorgarlikni boshlab yuboradi. Texnika remonti, dalaga mahalliy o`g`it chiqarish kuchayadi. Iliqroq kunlarda ariq va zovurlar hashari kuchayib ketadi. Xullas bu oy anchagina tayyorgarlik oyi bo`ladi.

Hut odatda ikki-uch kun oldin doxil bo`lib kuchli shamollar yuz beradi. Hut kirishi bilan dehqonlarning oromi yo`qoladi. Hamma ko`klamgi ekish mavsumiga tayyorgarlik ko`radi. Barakali hosilga zamin yaratiladi. Shu sababdan ham keksa dehqonlar "Hutning har daqiqasi kuzning o`n kuniga teng" deyishadi.⁴³ Urug`liklar tayyorlanib ekish uchun chog`laniladi. Hut o`z o`rnini hamalga topshirib, yer tafti ko`tarilgach, ekish yoppasiga avj oladi.

Turkiy dehqon taqvimlari haqida gapirar ekanmiz, uning o`tmishdoshlariga ham bir qadar to`xtalib o`tmoq lozim. Chunki bu taqvimlar keyingilariga o`z ta'sirini anchayin o`tkazgan. Jumladan arab istilosidan oldingi davrlarda bizning vohalarda asosiy din hisoblangan zardushtiylikning ham o`z taqvimi bo`lib, u Zardusht taqvimi yoki Avesto taqvimi deb ham ataladi. Umar Hayyom o`zining "Navro`znoma" asarida bu taqvimni chuqur izohlab, yuqoridagi oylarning lug`aviy ma'nosini quyidagicha talqin qiladi. (Izoh: Umar Hayyom oylarning nomini asli Avestocha demasdan Pahlaviy tilida deb aytadi. Chunki Umar Hayyom davrigacha Avesto tilidagi so`zlar Pahlaviy tiliga, pahlaviy tilidagi so`zlar yangi fors tiliga o`tib kelardi. Shuning uchun Umar Hayyom oy nomlarini Pahlaviycha deb tushuntiradi).

⁴² Narziqulov.A - Dehqon taqvimi. T.,1991-y. B-58

⁴³ O`sha asar. B-60

Biz Umar Hayyom so`zlarini aynan keltiramiz.

1. Farvardin - pahlaviycha so`z va uning ma'nosi aynan "jannatlar" bo`lib, bu oy o`simliklar o`shining boshlanishidir. Bu oy Hamal burjiga oid. Binobarin, oyning boshidan to oxirgacha oftob shu burjda bo`ladi.

2. Ordbihisht - bu oyda dunyo o`zining ko`karishi ila jannatmonanddir. Urd pahlaviy tilida "monand" degani. Oftob bu oyda haqiqiy aylanishi bo`yicha Savr burjida bo`ladi. Bu oy bahorning o`rtasidir.

3. Xurdod - odamlarni bug`doy, arpa va mevalar bilan boqadi. Oftob bu oyda Javzoburjida bo`ladi.

4. Tir - bu oyni "tir" atadilar, chunki bu oyda bug`doy, arpa va boshqa narsalarni taqsim qiladilar. Oftobning avji pasaya boshlaydi. Saraton burjida bo`ladi. Bu oy yoz oyining birinchisidir.

5. Murdod - tuproq berdi, ya'ni unda yetilgan meva va sabzavotlarni berdi. Yana bu oyda havo tuproq to`zoniga o`xshaydi. Bu oy yoz o`rtasidir. Oftob Asad burjida bo`ladi.

6. Shahrivor - bu oyni shahrivor deydilar, chunki bu daromad oyidir, ya'ni, podshohlarning daromadlari shu oyga to`g`ri keladi. Bu oyda dehqonga o`lpon to`lash oson. Oftob Azro (Sunbula)da bo`ladi. Bu yozning oxirgi oyi.

7. Mehr - bu oyni mehr deyishadi, chunki u insonlar o`rtasidagi do`stlik oyidir va pishgan barcha meva va boshqa narsalar hamda o`zlarining ulushlariga tekkanini birga baham ko`radilar. Oftob bu oyda mezonda bo`ladi, ya'ni kuzning boshlanishidir. (Mehrjon bayramini eslang)

8. Obon - ya'ni bu oyda boshlangan yog`inlardan suv ko`payadi va odamlar ekinlarini sug`oradilar. Oftob bu oyda Aqrabda bo`ladi.

9. Ozar - pahlaviy tilida ozar "olov" deganidir. Bu oyda ob-havo soviy boshlaydi va olovga muxtojlik paydo bo`ladi, ya'ni bu olov oyidir. Oftob bu oyda qavs burjida bo`ladi.

10. Day - pahlaviy tilida "day" devni anglatadi. Bu oyni "day" deyishlariga sabab, u qahrli va bu oyda yer ko`karishdan yiroqdir. Oftob Jadida bo`ladi. Bu qishning birinchi oyi.

11. Baxman - buning ma'nosi "o`shanga o`xshagan" demakdir. Chunki bu oy o`sha day oyiga o`xshab sovuq va quruqdir. Oftob bu oyda Zuhul xonasida, dalvning jadi bilan tutash yerida bo`ladi.

12. Isfand - bu oyni isfand deydilar, chunki isfand pahlaviy tilida mevani anglatadi, ya'ni bu oyda mevali daraxt va o`simliklar ko`kara boshlaydi. Oftob bu oyda oxirgi Hut burjiga yetib keladi.⁴⁴

Qadimgi Eron oylari yuqorida aytilganidek 30 kundan bo`lib, har bir kunning avesto tilida maxsus nomi bor. Alisher Navoiy asarlarida ham qadimgi eron oylarining hammasi tilga olinadi. Ayrim xollarda Navoiy qadimgi eron oylarining nomlarini burj oylarining nomlari bilan almashtirib qo`llaydi. Chunonchi: hamal o`rnida farvardin, savr o`rnida ordbehisht, javzo o`rnida xurdod, saraton o`rnida tir va shuning kabilar. Qadimgi Eron yil hisobi, ya'ni zardusht taqvimi zardusht dini nufuzining tobora pasayishi bilan milodiy birinchi ming yillikning oxirlarida unutila boshlagan. Biroq hozirgi davrda Hindistonning Bombay shahri va uning atroflarida istiqomat qilayotgan zardusht

⁴⁴ Hakimov.M - Turkiston xalqlari qo`llagan taqvimlar. T., 1999-y

jamoalari o`z taqvimlarini hamon saqlab kelmoqdalar. Ular zardusht bayramlari, marosimlari va urf odatlarini o`tkazishda mazkur taqvimga amal qiladilar. Dehqonchilikda ham qo`llaydilar. Ammo yo`qolib ketgan bo`lishiga qaramay bu taqvimlar turkiy dehqon taqvimlariga ham o`z ta'sirini o`tkazgan. Jumladan shu oylar nomi bilan bog`liq marosimlar XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ham dehqonlar orasida o`tkazib kelingan.

Tarixiy etnografik adabiyotlardan ma'lumki qadimdan o`troq hayot kechirgan xalqlar hayotida dehqonchilik asosiy mashg`ulot turi hisoblangan. Ayniqsa bu borada qadimgi Sharq, shu jumladan Buxoro vohasi ham juda qadim davrlardan o`ziga xos qulay tabiati, iqlimi va dehqonchiligi bilan Turon zaminida salohiyatli mavqega ega bo`lgan va vodiya o`ziga xos o`troq dehqonchilik madaniyati shakllangan. Dehqonchilik madaniyatining rivojlanib borish barobarida xalq orasida u bilan bog`liq bilim va malakalar, qolaversa urf odat va an'analar shakllanib borgan. Bugungi kunda dehqonchilik bilan bog`liq urf-odat va marosimlarni etnografik yo`nalishda tadqiq etish xalqimizning o`tmishdagi ijtimoiy hayoti va mafkurasini, hamda ko`plab marosimlarimizni kelib chiqish tarixi va idizlarini o`rganishda muhim manba bo`lib xizmat qiladi. Dehqonchilik an'analari ichida dehqon taqvimi(kalendari) va u bilan bogliq qarashlarga alohida e'tibor berilgan. Dehqonchilik taqvimi ushbu mashg`ulot turi bilan shug`ullanuvchi barcha xalqlarda qayd etilgan bo`lsada, Buxoro vohasi o`zbeklari misolida bu kam o`rganilgan mavzu bo`lib qolmoqda.

Buxoro vohasidagi dehqonchilik taqvimi bo`yicha alohida ilmiy izlanishlar olib borilmagan bo`lsada, ayrim mualliflar u yoki bu mavzuni yoritish jarayonida bu haqda ba'zi ma'lumotlarni beradilar.

Dehqonchilik taqvimining vujudga kelishi va rivojlanishida xalq hayotining tarixiy bosqichlari mehnat mashg`uloti va faoliyati hamda fenologik kuzatuvlari

mujassamlashgan bo`lib bu xalq ma'naviy madaniyatining o`ziga xos ko`rinishlaridan biridir. Mahalliy aholi dehqonchilik taqvimi yordamida yil fasllarini hamda oy kunlarini doimiy ravishda kuzatib borib, ekinni qachon ekishdan tortib, qachon hosilni yig`ishtirib olishgacha bo`lgan davrni aniq bilganlar. Xalq orasida ushbu taqvim hisobi bilan alohida shug`ullanuvchi bilimdon kishilar bo`lib, ular bir paytning o`zida fenologik kuzatuvlar ham olib borganlar. Ushbu kishilar oy kunlarini hisoblab ularni xosiyatli va xosiyatsiz kunlarga ajratib chiqishgan va hatto dehqonlarni qaysi kulari ekin ekishni boshlashlarigacha belgilab berganlar. Hisobdonlik otadan farzandga meros sifatida o`tib, bunday kishilar xalq orasida katta hurmat va obro` e`tiborga ega bo`lganlar. XIX asr oxiri XX asr boshlarigacha O`rta Osiyoda asosan "Shamsiy yil hisobi" hamda "Qamariy yil hisobi" mavjud bo`lib, Shamsiy ya'ni quyosh yil hisobi Qamariy oy hisobiga ko`ra ko`proq qo`llanilgan.

Dehqonchilik mashg`uloti bilan shug`ullaniuvchi aholi orasida har ikki yil hisobidagi oy nomlariga atalgan maqol va matallar bo`lib, ular o`sha oyda amalga oshiriladigan mashg`ulotlarga bog`liq bo`lgan. Masalan, shamsiy hisobi bo`yicha yil "Hamal" oyidan boshlangan bo`lib bu davrda dehqonlar yerlarga ishlov berib ekin ekishni boshlaganlar. Balki shuning uchundir, xalq orasida "hamal kirdi, amal kirdi" yoki "hamal oyi amal oyi" degan maqol tarqalgan.

Yuqorida qayd etganimizdek xalq orasidagi taqvim hisobdonlari bir paytning o`zida fenologik kuzatuvlarni ham olib borishgan. Bizga ma'lumki tabiat o`zgarishlarini doimiy ravishda kuzatib borish hamda taqqoslash fenologik kuzatuvlarining muhim omili hisoblanadi. Ushbu kuzatuvchilar ob-havoning qanday kelishini, yilning qaysi hayvon muchalida bo`lishligiga ham bog`lashib o`z taxminlarinin bayon qilishgan. Masalan, dehqon hisobdonlari qo`y, quyon, baliq, it, hamda to`ng`iz yili serhosil yillar bo`lishiga ishonishgan. Bu o`rinda

shuni ham ta'kidlash joizki, yillarning hayvon nomlari bilan atalishi hattoki dastlab turkiy tilli xalqlarda paydo bo'lib keyinchalik boshqa xalqlarga tarqalganligi xususida ham fikrlar mavjud. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki derhqonchilik taqvimi boshqa xalqlar kabi O`rta Osiyo xalqlarining derhqonchiligida ham o`ziga xos o`rin tutgan. Bu masalani o`rganish esa ajdodlarimizning turmush tarzi va ma'naviy merosi haqidagi bilimlarimizni yanada boyitishiga shubha yo`q.

III bob. Buxoro vohasi dehqonlarining urf-odat va marosimlari

O`zbekiston jahon sivilizasiyasining beshigi hisoblanadi. O`zbekistonning istiqloli tufayli unutilayozgan qadriyatlarimiz, urf-odat va marosimlarimiz tiklanmoqda, xalqimizning milliy o`zligini anglashi orqali ona yurt tarixiga qiziqish yanada kuchaymoqda.

Buxoro viloyati aholisi turmush tarzida qadimiy falsafiy, diniy, taqvimiy tasavvurlari hamda xo`jalik an'analari bilan bog`liq urf-odat, marosim va bayramlar mavjud. Jamoaviy hayot o`zida turli an'analarni mujassam etgan. Ular asrlar mobaynida ajdodlardan avlodlarga meros bo`lib kelmoqda. Mazkur urf-odat va marosimlarni taqvimiy, mehnat, oilaviy va diniy kabi guruhlariga bo`lish mumkin. Ushbu qadimiy an'analarni o`zida yangicha ko`rinishlarni ham mujassam etgan holda xalqimiz turmush tarzida hozirga qadar yashab kelmoqda. Quyida ulardan dehqonchilikka aloqadorlari haqida to`xtalib o`tamiz.

Navro`z, Mehrjon yoki hosil bayrami, yerga urug` qadash, oblo baraka, qovun sayli, darveshona kabilarni. Mazkur urf-odat va marosimlar o`zbek xalqi etnomadaniyatida muhim o`rin tutadi. Ularning tarixiy ildizlari qadimgi davrlarga borib taqalib, tarixning turli bosqichlarida ba'zan tazyiqlarga uchrab, ba'zan yangicha ko`rinish olib, hozirga qadar yetib kelgan. Bunga misol tariqasida Navro`z, Mehrjon, Darveshona kabilarni olishimiz mumkin. O`zgarishlarga uchraganlariga misol tariqasida Qo`sh chiqarish - Chigit ekish, Mehrjon - Hosil bayrami, Birinchi chanoq kabilarni keltirib o`tishimiz mumkin.

Navro`z udumlari va urf-odatlari

Xalqimizning turmush tarzida yil taqvimi bilan bog`liq turli xil udumlar, urf-odat va marosimlar mavjud bo`lib, ularning barchasi Sharq xalqlarining quyosh taqvimidagi birinchi kun bo`lmish Navro`z (Nav-Yangi, Ro`z-kun) bayramidan

boshlanadi. Biz katta tantanalar bilan nishonlayotgan ulug` ayyom, bahor bayrami - Navro`zni ajdodlarimiz tabarruk kun deb bilib, uni katta quvonch va xursandchilik bilan o`tkazishga harakat qilganlar. Navro`z Yer haqidagi dastlabki ilmiy-geografik tasavvurlar paydo bo`lgan zamonlardan boshlab shakllangan bo`lib, dastlab ushbu bayramni o`tkazish o`troq dehqonlarda, so`ngra yarim o`troq va ko`chmanchi turkiy xalqlarning ham urf-odatlariga aylangan. O`rta asr muarrixlari uning vujudga kelish tarixini bundan uch, uch yarim ming yil oldin bo`lgan deb yozgan bo`lsalar, zamonamiz tarixchilari Navro`zning tarixiy ildizlarini tosh asri (eramizdan avvalgi 10-5 ming yillar)ga borib taqaladi, degan xulosani bildiradilar.

Tarixiy ildizlari juda chuqur bo`lgan ushbu bayram Markaziy Osiyo va O`rta Sharq mamlakatlarida ancha qadim davrlardan tarkib topgan tantana bo`lib, uning qadimiy an'ana ekanligini isbotlovchi qator tarixiy yozma manbalar va tarixiy asarlar mavjud. Jumladan, Abu Rayhon Beruniy, Abu Mansur Salabiy, Umar Hayyom singari adiblarning tarixiy, ilmiy va adabiy asarlarida Navro`zning kelib chiqishi, uning o`ziga xos qadimiy rasm-rusumlari va marosimlari to`g`risida qiziqarli ma'lumotlar mavjud. O`rta asrlarning mashhur qomusiy olimlari asarlarida Navro`zning kelib chiqish tarixi afsonaviy shohlar Qayumars, Jamshid va Sulaymon bilan bog`lab talqin qilinadi. Navro`z bayram tarzida nishonlana boshlangandan beri o`tgan turli hukmdorlar va davlat xizmatida bo`lgan yuqori martabali tarixiy shaxslar ham ushbu bayramni nishonlashga turfa xil munosabat bildirganlar. Zamonamizda esa mazkur milliy bayramga juda katta e'tibor berilib, turli hududlarda o`ziga xos tarzda nishonlanmoqda. Jumladan, Buxoro viloyatining barcha tumanlarida ham bahor kelishi bilan yoshu-qari ushbu bayramni intiqlik bilan kutadilar va unga tayyorgarlik ko`radilar. Navro`z bilan bog`liq udumlarni ikkiga: bayramdan

oldin va bayramdan keyin o`tkaziladiganga bo`lish mumkin. Bayramgacha bo`lgan tadbirlarga ekin ishlariga tayyorgarlik ko`rish, ko`chalar, hovli-joylar, ziyoratgoh va mozorlarni tozalash, bayram taomlarini pishirish kabilar kiradi.

Navro`z oldidan viloyatimizning barcha tumanlarida ko`chalar, qishloq qabristonlari, atrof-muhit tozalanib, yangi yilning barcha uchun xayrli kelishini Ollohdan so`rab "xudoyi", "darveshona" kabi marosimlar o`tkaziladi. Odamlarning o`zlari ham yangi yilni poklangan holda kutib olishga harakat qiladilar. Shu bilan birgalikda barcha sug`orish tarmoqlari loyqadan hashar usulida tozalanib, suv yo`llari ravon qilinadi. Ajdodlarimiz qadimdan erta bahorda yangi yilda suvning mo`l-ko`l bo`lishini niyat qilishib, qurbonlik marosimlarini o`tkazib kelganlar. Mazkur an'analari hozirga qadar o`z ahamiyatini yo`qotgan emas. Xalqimizning qadimiy an'anasiga ko`ra, Navro`z bayrami hut oyining oxirgi kechasi oila davrasida o`tkaziladigan "qozon to`ldi" udumi bilan boshlangan. U sof oilaviy udum bo`lib, har bir xonadon o`z imkoniyati doirasida tansiq taomlar tayyorlab, o`tgan ajdodlar ruhiga "is" chiqaradilar. "Qozon to`ldi" oqshomida barcha idishlar suvga to`ldirib qo`yilgan. Xalq qarashlariga ko`ra, suv to`ldirilgan idishlarga tangrining marhamati bilan qut-baraka to`ladi deb tasavvur qilingan.

"Qozon to`ldi" oqshomida har bir xonadon qozonlarini to`ldirib biror lazzatli taom tayyorlasa, kelayotgan yilda hosil mo`l bo`ladi degan qarashlar mavjud bo`lib, uning tarixiy asoslari "Avesto"da qayd qilingan "Xamaspaeta" bayrami bilan bog`lanadi. Qadimda bu udum ezgu ruhlarning yangi yil arafasida o`zlari yashagan xonadonga tashrif buyurishi bilan aloqador marosim sifatida o`tkazib kelingan. Bayram dasturxonlarining bezatilishi xo`jalik mashg`ulotlari bilan ham bog`liq bo`lgan. Masalan, dehqonlarning dasturxonini ziroatchilik ne'matlari bilan to`lsa, chorvadorlarning dasturxonida go`sht va sut-qatiq mahsulotlari

ko`proq bo`lgan. Uy bekalari ushbu kunda har yilgi odatlariga ko`ra "uy ko`taradilar". Ya'ni uydagi gilam, kigizlarni tashqariga olib chiqib yoyadilar, hammayoqni supurib-sidiradilar, qishi bilan isingan sandallarni olib tashlab, o`rnini tuproq bilan ko`mib, tekislaydilar. Shu kuni marosimiy o`rik turshagidan tayyorlangan sharbat ichilishi ham manbalarda keltirilgan. XIX asrda Buxoro amirligi va Qo`qon xonligida yangi yil bayrami - "Sari-sol"da amir va xon haramiga o`rik turshagidan tayyorlanadigan sharbat uchun ma'lum miqdorda shakar va o`rik turshagi ajratilishi to`g`risidagi ma'lumot ham fikrimizni isbotlaydi.

Mirishkor dehqonlar Navro`z arafasida yetti taxtacha ustiga bug`doy, arpa, sholi, jo`xori, tariq, javdar, mosh kabi donli ekinlarning urug`larini yoyib qo`yib, har kuni suv sepib turganlar. "Qozon to`ldi" kuni ana shu donlarning unishiga qarab, kelayotgan mavsumda qaysi ekindan mo`l hosil olish mumkinligini chamalaganlar. Ushbu odat dastlab sasoniyalar davrida shoh saroyida o`tkazilgan bo`lib, yangi yilning qanday kelishini oldindan taxmin qilganlar. Bulardan tashqari Navro`z bayrami boshlanadigan kun – 21-martning haftaning qaysi kuniga va qaysi muchal hayvoniga to`g`ri kelishiga qarab ham kelgusi yil to`g`risida turli taxmin, bashoratlar qilingan.

Viloyatimizda tabiatda bo`layotgan o`zgarishlarga alohida e'tibor beruvchi sinchilar - sinchkov kishilar tabiat alomatlari hamda uzoq o`lkalarga uchib ketgan qushlarning qaytib kelish vaqti va ularning tashqi ko`rinishlarini kuzatib yangi yilda ob-havoning qanday bo`lishi to`g`risida turli taxminlarni bildiradilar. Shu bilan birgalikda Yangi yilning dastlabki kunlari ham yangi yilning qanday kelishini bildirgan. Masalan, ozarbayjonlarda Navro`zning birinchi kuni bahorni, ikkinchi kuni yozni, uchinchi kuni kuzni, to`rtinchi kungi ob-havo esa qishning

qanday kelishini bildiradi. Har yili Navro`z bayramida doshqozonlarda sumalak, halim va boshqa bahoriy taomlar pishiriladi.

Ushbu taomlar ichida eng keng tarqalgani sumalak bo`lib, bu taomni tayyorlashning o`zi alohida bir marosim hisoblanadi. "Sumalak" kalimasi "sharbat uchun undirilgan arpa" yoki bug`doy ma'nolarini anglatuvchi qadimiy turkiy so`z "suma"dan kelib chiqqan. Muhammad Husayn Burxonning "Burxoni qote'" asarida (1650-yil) "...Samanu - holvaytarga o`xshagan narsa, uni ko`klagan bug`doy o`simtalarining shirasidan tayyorlanadi", deb izohlanadi.⁴⁵ Sumalak pishirish ishlariga yoshi ulug`, ko`p farzandli, xalq orasida katta hurmat qozongan ayollar yetakchilik qilishi va sumalak o`chog`idan odamlardagi shamollashni haydovchi vosita sifatida foydalanib, farzand ko`rmayotgan juvonlarning sumalak o`chog`iga kirib o`tirishlari sumalakning hosildorlik kulti bilan bog`liq ekanligini tasdiqlaydi. Ulkan qozonlar qadimdan muqaddas sanalib, ularda tangrilar sharafiga maxsus taomlar pishirilgan. Serhosillik timsoli hisoblangan bunday qozonlarda pishirilgan sumalakdan tanovul qilgan kishiga yil bo`yi omad, qut-baraka yor bo`ladi degan qarashlar mavjud bo`lgan. Bir idishda taom iste'mol qilish odamlarni o`zaro yaqinlashtiradi degan qadimiy qarashlarga hamohang holda bitta qozonda bayram taomlarini tayyorlash ham kishilarni g`oyaviy jihatdan birlashtiradi deyishimiz mumkin.

Yurtimizning deyarli barcha viloyatlarida yosh-u qari hamma sumalak pishirilayotgan joylarga tashrif buyurishib, hamqishloqlarini bayram bilan tabriklaydilar. Bu kabi odatlar hamqishloqlar o`rtasidagi o`zaro mehr-oqibatni yanada kuchaytiradi. Navro`z bayrami kuni kishilarning biror bir mehnat turi

⁴⁵ Halimov T. – Navro`z bayrami va uning dehqonlar hayotidagi ahamiyati. "Tarixiy xotira – ma`naviyat asosi" mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. Buxoro, 2012-yil.

bilan shug`ullanishi ma'qullanmaganligi bois yoshu-qari bu kunni bayram tarzida, xursandchilik bilan nishonlashga harakat qilgan. Butun dunyo xalqlarida mavjud bo`lgan "birinchi kun magiyasi"ga ko`ra yangi yilning birinchi kuni qanday kutib olinsa, yil bo`yi o`sha kayfiyat odamlarga hamroh bo`ladi degan qarashlar mavjud.⁴⁶ Bayram kuni erta tongdan odamlar olamdan o`tgan ajdodlarini xotirlaganlar, muqaddas joylar-mozorlarni, ota-onalari, qarindosh-urug`larini ziyorat qilganlar. So`ngra bayram saylgohiga boradilar. U yerda turli tomoshalar: uloq, kurash, dorbozlik o`yinlari kechga qadar davom etgan. Bolalar turli ranglarga bo`yalgan tuxumlarni urishtirib, varrak uchirish musobaqalarini o`tkazishgan. Bayramda o`rgatilgan xo`roz, it, qo`chqor, tuyalarni o`zaro urishtirish kabi tomoshalar bo`lgan. Qadimdan odamlar urushayotgan hayvonlarni xosiyatli va xosiyatsizga bo`lishib, ularning qaysi biri yutib chiqishiga qarab yangi yilning "xosiyatli" va "xosiyatsiz" kelishini taxmin qilganlar. Qiz va juvonlar esa qishloq chetidagi bog`larda qadimiy odatlardan bo`lgan arg`imchoq - halinchak uchganlar. Arg`imchoq uchish dunyoning boshqa xalqlarida ham mavjud bo`lib, balog`atga yetganlik ramzi hisoblanadi. Buxoro viloyatida arg`imchoq arqonlari asosan o`rik daraxti shohlariga bog`lanib, halinchak uchayotganlar iloji boricha balandroq uchib, eng baland shoxchadagi o`rik guli yoki g`o`ra(dovuchcha)ni uzib olishga harakat qilganlar. Kimki bunga erishsa uning barcha istaklari ro`yobga chiqadi, deb qaralgan. Qadimdan Navro`z bayrami qishloq joylarda dalaga qo`sh chiqarib, urug`lik don sepish bilan yakunlangan. Ushbu marosimlar ham bir necha bosqichlardan iborat bo`lib, "shoxmoylar", "urug` sepish", "qo`sh oshi" kabilarni qamrab oladi. Mazkur marosimlarning tarixiy ildizlari mil. av. III ming yillik oxiri II ming

⁴⁶ Ashirov A. – O`zbek xalqining qadimgi e`tiqod va marosimlari. B-134

yillik boshlariga borib taqaladi va qadimiy e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lib, haftaning belgilangan kunlarida o'tkazilgan.

Dalaga birinchi qo'sh chiqarilgan kuni Bobodehqonga atab biror bir hayvon, ko'pincha qo'chqor so'yilgan va marosimiy taom tarzida "qo'sh oshi", "qo'sh go'ja", "xudoyi sho'rva" pishirilgan. Eng keksa usta dehqon fotiha berganidan so'nggina xudodan mo'l-ko'l hosil so'rab, yaxshi niyatlar qilishib ishga kirishilgan. Qurbonlik hayvon go'shtidan palov yoki sho'rva kabi taomlardan biri tayyorlangan. "Qozon to'ldi" kungi "is" yog'iga bo'g'irsoq, o'yma-qatlama pishirilgan yog' bilan ho'kiz shoxlarini, bo'ynlarini hamda bo'yinturuqni moylaganlar.⁴⁷ Keksalarning aytishicha, shunday qilinsa ho'kiz muguzlari baquvvat, bo'ynini bo'yinturuq yara qilmaydigan, ho'kizlarning o'zi esa mehnatdan charchamaydigan bo'ladi.

Umuman olganda "qo'sh chiqarish", "shoh moylar", "qo'sh oshi", "urug' sepish" nomlari bilan aytiluvchi marosimlar dehqonlarning yangi yildagi birinchi ish kuni bo'lib, "birinchi kun magiyasi" bilan bog'liq holda iloji boricha xursandchilik bilan kutib olishga harakat qilingan. Necha ming yillik tarixga ega bo'lgan Navro'z bayramini tahlil qilar ekanmiz, u bilan bog'liq marosimlar orasida quyidagi umumiylikni ko'rishimiz mumkin: olov yoqish; bir-birlariga suv sepish yoki cho'milish; bashorat qilish; o'rik turshagi suvini yoki afsun, duo o'qilgan suv ichish; "qozon to'ldi" marosimi; pishirib, turli ranglarga bo'yalgan tuxumlar bilan bog'liq odatlar; baland joylar-tepaliklarga, mozorlarga, muqaddas joylarga chiqish, ziyorat qilish; bir-birlarini va ota-onalarni yo'qlash; qiz-juvonlarning arg'imchoq uchishlari; shahardan tashqarida sayl, uloq, kurash uyushtirish... kabilar.

⁴⁷ Шаниязов К. - К этнической истории узбекского народа. Т., 1974 г. С-174

Yuqorida keltirilgan Navro`z bilan bog`liq barcha odatlar zamirida xalqning yagona ezgu niyati - yangi yil hosildorlik, mo`l-ko`lchilik yili bo`lsin, degan umid-istagi yotadi. Qadimgi ajdodlarimizning dunyoqarashi, ma'naviy saviyasining yorqin na'munasi bo`lgan Navro`z tabiat va hayotning qayta tug`ilishi bilan birga, poklik va shodlik, ma'naviyat va birdamlik, milliy iftixor, o`zlikni anglash va hamjihatlik ramzi hisoblanib, bahoriy marosimlarni boshlab beradi va butun bir faslni o`z ichiga qamrab oladi.

Qovun sayli

Hosilni yig`ishtirib olish bilan bog`liq marosimlar turli tuman bo`lib, ulardan biri - "qovun sayli"dir. Qovun sayli o`rta asrlarda katta tantanalar bilan o`tkazilgan. Poliz mahsulotlari pisha boshlagan vaqtda dehqonlar qishloq oqsoqollari, qo`ni-qo`shni va yoru birodarlarini bir kun oldin: "Ertaga falon vaqtga paykalga qovun sayliga boringlar", - deb taklif qilgan. Bunga oldindan tayyorgarlik ko`rilgan. Saharda kun isib ketmasidan oldin dehqonlar eng sara, band bergan qovunlardan uzib salqin joylarga olib qo`yilgan. Shuningdek, kelgan mehmonlar uchun biror mazali taom ham pishirilgan. Sayilga oqsoqollar, bolalar, umuman barcha taklif etilgan. Sayilda erkaklar askiya aytishib, suhbatlashib o`tirganlar. Taomdan so`ng oqsoqollar dehqonning hosiliga baraka tilab duo qiladilar va hosil yig`imiga ruxsat beradilar. Sayil ishtirokchilari eng shirin qovunlar bilan mehmon qilingan.

Bog`dorchilikka ixtisoslashgan hududlarda "olma sayli", "uzum sayli", "anor sayli", "anjir sayli" kabi bayram sayillari o`tkaziladi. Bu kabi sayillarning so`g`dlar (Buxoro va Samarqand aholisi)dan tashqari qadimgi xorazm va vodiylıklarda ham o`tkazilganligi Beruniy ma'lumotlarida qayd etilgan bo`lib, unga ko`ra qadimda "qovoq bayrami" va uzum bilan bog`liq bayramlar ham nishonlangan.

Mehrjon – Hosil bayrami

O`zbeklar orasida kuzgi tengkunlikda (22-23 sentabrda) o`tkaziluvchi qadimiy taqvimiy bayram "Mehrjon" dehqon va chorvadorlarning eng tantanali ravishda o`tdigan bayramlaridan biri sanalgan. Abu Rayhon Beruniy o`z asarlarida "Quyosh va oy falakning ikki ko`zi bo`lganidek, Navro`z va Mehrjon zamonning ikki ko`zidir", - deb bejiz ta'kidlamagan.

Mazkur bayram qadimiy forslar taqvimidagi yettinchi oyning nomidan olingan bo`lib, 23 sentyabrdan 22 oktyabrgacha bo`lgan davrni o`z ichiga olgan. Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida yozilishicha: "...mehr" - Quyosh nomi, Quyosh shu kuni olamga zohir bo`lib, (bayram) uning nomi bilan atalgan".

Beruniyning ta'kidlashicha "Zardusht Mehrjon bilan romro`z (ushbu oyning 21 kuni)ni birga hayit qilishni buyurgan. Keyinchalik mazkur bayram huddi Navro`zdagi singari bir oy davomida aholining turli tabaqalari o`rtasida besh kundan bayram qilingan".

Demak, qadimdan "Navro`z" yangi yil va yangi ish mavsumining boshlanishi sifatida tantana qilingan bo`lsa, "Mehrjon" o`simliklar dunyosining o`sishdan to`xtab, "uyquga ketishi" va mehnat mavsumining yakunlanishi sifatida bayram qilingan.

Hozirda esa "Mehrjon" o`zining asl ma'nosini yo`qotib, "birinchi chanoq", "paxta bayrami" va hosil bayramlariga bo`lingan holda davom etmoqda. Jumladan xalqimizda har bir meva yoki sabzavotga bag`ishlangan alohida sayillar bilan bir qatorda, ularning barchasiga bag`ishlab bir yo`la o`tkaziladigan bayram ham bo`lgan. U "Hosil bayrami", "Hosil to`yi" yoki "Xirmon to`yi" deb atalgan. Bu bayramlar mehnat mavsumlari yakunlanib, dehqonlarning bo`sh

vaqtlarida uyushtirilgan. "Hosil bayrami" tomosha - o`yinlarga juda boy bo`lganidan, katta sayilga aylanib ketgan. Hozirgi davrda bunday bayramlar tuman markazlarida o`tkazilib, ularda karnay-surnaychilar, polvonlar, dorbozlar, turli ansambllar ishtirok etadilar. Shuningdek, bu kabi bayramlarda o`zbek xalqi an'anaviy o`yinlaridan bo`lgan uloq - ko`pkarining o`tkazilishi odamlarga o`ziga xos xursandchilik baxsh etadi. Hozirgi davrda oldiga qo`ygan rejalarini amalda bajara olgan tumanlarda har yili mehnat mavsumi yakunlanganidan so`ng navbati bilan "Hosil bayram"lari o`tkazilib kelinmoqda.

Hosil yig`imi oldidan o`tkazilib kelinadigan marosimlar zamirida shukronalikka xos ko`rinishlar mavjud bo`lishi bilan birga hosilni magik himoyalash yoki unga qo`yilgan tabuni olib tashlash kabi g`oyalar ham yetakchilik qiladi.

Darveshona marosimi haqida.

Darveshona marosimi xalqimizning qadimiy marosimlaridan biri bo`lib, u yurtimizning deyarli barcha viloyatlarida tarqalgan. Xalq orasida bu marosimning vujudga kelishi haqida turli rivoyatlar yuradi. Men shulardan buvimdan eshitganimni keltirib o`taman:

Qadim zamonda Xizr bobo bo`lgan ekan. U juda muloyim, hammaga yaxshilik qilar, dardmandlarga davo ulashib, yetimlarning boshini silar ekan. Har yili qishning oxirgi oylarida u yoniga barcha mehrga muhtoj odamlarni yig`ib, katta qozonda ovqat pishirtirarkan. Shunday kunlarning birida tut daraxtining tagida ovqatlanib o`tirsa, shu yerdan bir musofir o`tib qolibdi. Musofir suv so`rab, bir yumush bilan uzoq yurtga safarga otlanganini aytibdi. Xizr bobo musofir yigitning yuzidagi so`lg`inlikdan bir kasali borligini tezda payqabdi. So`ng idishda suv uzatib:

- Dardingizning davosi bor, - debdi kutilmaganda.

"Dardimga nomi dong`i ketgan minglab tabiblar ham shifo topolmagan, ust-boshi eski, ko`chada ovqatlanib o`tirgan shu chol toparmidi?" xayolidan o`tkazibdi yigit. Keyin esa "Bir yomonning, bir yaxshining gapini ol, deyishadi-ku, mayli, mendan nima ketibdi, qo`shilsam qo`shila qolay, - deb ular tomonga qarab yuribdi. Qarasa guring avjida. Shu payt Xizr bobo qo`lini duoga ochibdi. Bola-baqrasi bilan kelgan odamlar ham boboga qo`shilishibdi. Bu yilgi ko`klamdan kimdir dardiga shifo tilasa, yana kimdir hosiliga rizq-ro`z so`rab pichirlashibdi. Ularning harakatlarini kuzatayotib musofir yigit ham qo`lini duoga ochib dardiga shifo so`rabdi. Shu payt yigit o`zida o`zgarish seza boshlabdi. U o`zini dardiga darmon topilganday his qilibdi. Oradan ko`p o`tmay darddan butunlay forig` bo`libdi. Ko`pchilikning duosi Vojib deydi xalqimiz. Ana shu voqeadan keyin bu odat xalq ichida "Darveshona" nomi bilan tarqalib ketgan. Har yili bahor fasli kelishi bilan qishloqlarda 2-3 kishi uyma-uy yurib, pul yoki oziq-ovqat to`plab, tepaliklarda ovqat (halim) pishirishadi. Bu taomni ba'zi bir joylarda "hadissa" deyishgan. Taomni asosan yigitlar, katta yoshdagi kishilar niyat qilib bir kechayu bir kunduz pishirishgan. So`ng ovqatni bir dasturxon ustida butun qishloq baham ko`rgan. Shuning uchun ham uni "Degi darveshon" - "darvishlar qozoni" deyishgan.⁴⁸ Bu marosim qadimda yurtda biror ofat bo`lganda (kasallik tarqalganda, qahatchilik, ocharchilik boshlanganda) undan xalos bo`lish yoki dehqonchilik ishlariga yaratgandan rivoj tilash maqsadida o`tkazilgan. U darvishlar odatlariga o`xshab, uyma-uy yurib oziq-ovqat yig`ish bilan bog`liq bo`lgani uchun Darveshona (darveshlarga o`xshab) deb atalgan. Darveshonada yig`ilgan mablag`, g`alla, go`sht va oziq-ovqatlardan

⁴⁸ Qurbonova M.B – Darveshona marosimi haqida. "Akademik K.Shoniyozov o`qishlari turkumida O`zbekiston etnologiyasining dolzarb muammolari" mavzuidagi 4-respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. Toshkent-Namangan, 2007-yil. B-214-217

qashshoq oila yoki beva-bechoralarga berilgan. Shunday qilib, har ko`klam yaqinlashganda odamlar "Darveshona"ga yig`ilishadi.

Xirmon bilan bog`liq udumlar

O`zbek xalqining umrboqiy marosim va udumlaridan biri – xirmon ko`tarish bilan bog`liq udum va marosimlar hisoblanadi. XIX-XX asr boshlarida ham xirmon ko`tarish bilan bog`liq bir necha urf-odatlar va marosimlar nishonlangan. Etnografik ma`lumotlarning guvohlik berishicha, bunday odatlaru marosimlarda xalqqa xos bo`lgan eng yaxshi fazilatlar-bag`rikenglik, saxiylik, tantilik, kamquvvatlarga yordam berish ka-bi chinakam xalqchil va umuminsoniy qadriyatlar o`z aksini topgan.

Yanchilgan g`alla shamolda sovurilgach, urug` yoki jamoa a`zolari uni g`alvirdan o`tkazish yoki chig`illashga tushgan. Toza bug`doy bir tarafga, yanchilmay qolgan boshoqlar esa ikkinchi tarafga ajratilgan. Eng toza bug`doy doni chosh qilingan. Chig`illash va g`alvirlash ishlari ham anchayin mashaqqatli bo`lgan. Tinimsiz mehnat jarayonida bir tomondan kun issig`I, qolaversa chang dehqonni holsizlantirgan. Ana shunday paytlarda dehqonlarning odatlariga ko`ra bog`bonlar, polizchilar o`z mahsulotlarini xirmon joyiga olib borganlar. Uzum-u qovun-tarvuzlar issiq va changda dehqonlar joniga oro kirgan. Dehqonchilik udumiga ko`ra xirmon joyiga olib kelingan mahsulotlarga naqd pul to`lanmagan, balki kelishilgan tarzda choshdan bug`doy berishgan. Agar mahsulot egalari bilan kelishuv yaxshi kechmasa, ular mahsulotlarni boshqa choshga olib ketganlar. Bundan tashqari, xirmon joyda ovqat uchun so`yilgan jonliqning haqi ham o`rtada bo`lib, choshdan to`langan.

Yuqoridagi ma`lumotlardan ko`rinib turibdiki, xirmonda ishlovchi dehqonlarning ovqatlanishi bir qozon, bir dasturxon atrofida bo`lgan. Donga

almashilgan oziq-ovqat mahsulotlari barchaga tegishli bo`lgan. Udumga ko`ra barcha narsa o`rta baham ko`rilgan. Mahsulotni ayirboshlash ham o`zboshimchalik bilan emas, balki xirmon ishini boshqarayotgan jamoa vakillari bilan maslahatlashib hal etilgan. Agar hosil yaxshi bo`lsa, o`rtada so`yiladigan jonliq ham, meva va poliz mahsulotlari ham ko`p xarid etilgan. Chosh kam bo`lgan paytlarda mahsulot ayirboshlash deyarli kuzatilmagan.

Don toza bo`lgach, xirmon o`rtasiga uyulgan va maxsus udumlar amalga oshirilgan. Jumladan don uyib qo`yilgach, atofiga aylana shaklida beshta qoziq qoqilgan va ular bir-biriga ip bilan tutashtirilgan. Bular “baraka” qoziqlari deb ham yuritilgan. Choshning eng baland joyiga bug`doyni sovurishda ishlatiladigan kurak qiblaga qaratib sanchib qo`yilgan.⁴⁹ Keksalarning aytishicha Xojai Hizr yoki Bobodehqon, ya`ni dehqonchilikning pirlari saharda xirmonga qadam ranjida qilar emish va barakali b`lsin deb choshga don qo`shar emish. Shuningdek bu holat xirmonni yomon ko`zlardan asraydi, degan fikrlar ham bo`lgan.

XX asrning boshlaridan boshlab, don chosh qilingandan so`ng, uning turli tomonlariga beshta tosh yoki qattiq keak qo`yilgan. Choshning beliga esa xirmonda ishlatilgan ba`zi bir asboblardan tashlab qo`yilgan. Bu odat “choshning belini bog`lash” deb atalgan. Ziroatchilik homiysi Bobodehqon saharda kelib xirmonga nazar tashlar ekan. Shunda xudo “ol qulim” desa xirmonning salmog`i oshar ekan. Xalq orasida xirmonning besh joyidan qoziq qoqib ip tortish, besh joyiga baraka toshi qo`yish – choshning beliga belbog` tortish (bog`lash) donni yomon ko`zdan, egri qo`llardan asraydi deb tushunilgan. Ehtimol besh raqamining sehriy kuchiga ishonish va sonlar falsafasining ham bunga aloqasi bo`lishi mumkin. Xususan dehqonlarning fikriga ko`ra, haftaning

⁴⁹ Rahmonov.F – Dehqonchilik udumlari. Muloqot, 3-son. 2000-y., B-33

payshanba kuni har qanday islar uchun yaxshi va xosiyatli hisoblangan. Shuning o`zidan ham besh raqamining urf-odatlardagi o`rnini bilib olish mumkin.

Ba`zi bir etnologlarning fikricha, bu odat xirmon a`zolari o`rtasida ishonch belgisi sifatida ham ishlatilgan bo`lishi mumkin. Chunki tunda xirmonchilardan birortasining niyati buzilib, choshdan o`zlashtirmoqchi bo`lsa, qoziq iplari yoki toshlar o`z o`rnidan siljib ketgan. Bu esa hammani hushyorlikka chaqirib turgan. Tong sahardan xirmonchilar avvalo mana shu baraka iplariga, toshlarga va chosh belidagi asboblarga diqqat qilganlar. Agar bari o`z o`rnida bo`lsa, hosilni Xo`jai Hizr yoki Bobodehqon yomon ko`zlardan asrabdi deb o`ylaganlar.

Choshni to`dalash aytida atrofga sochilib, tuproqqa qorishgan bug`doylarni dehqonlar supurgi bilan supurib to`plaganlar. Dehqonlar ushbu to`dachani “xirmon tagi” yoki “Haqullo” deb ataganlar.⁵⁰ Tuproqqa aralashib qolgan bu donlardan tashqari baholi qudrat choshdan tashqariga ham don to`plangan va bu ham “Haqullo”, ya`ni “Xudoning haqi” sifatida olib qo`yilgan. Ushbu choshdan alohida to`plangan donlar ham qayta sovurilib, tozalangach, uning aksar qismi sadaqa sifatida eng kambag`al oilalarga, beva-bechora va yetim-yesirlarga tarqatib berilgan. Qolgan qismi esa qishloq imomi yoki eshoniga shuningdek masjidga xayr qilingan.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Zarafshon vohasi o`zbeklarida xirmon bilan bog`liq yana ko`plab urf-odatlar bo`lgan. Mabodo choshdagi bug`doy o`lchanayotgan paytda biror kishi “choshga baraka” desa, “umringizga baraka” deb javob qaytailgan. Choshga yaqin kelib so`rashgan kishilarga bir-ikki g`alvirda bug`doy ham berilgan. Ushbu udumlar albatta o`zbekona mehr va muruvvatni anglatgani shubhasiz.

⁵⁰ Rahmonov.F – Dehqonchilik udumlari. Muloqot, 3-son. 2000-y., B-34

IV bob. Xalq og`zaki ijodida dehqonchilik madaniyati

Xalq yaratgan asarlar jabr-zulmga, ijtimoiy haqsizlikka, yot el bosqinchilariga qarshi mardonavor kurashlarni, vatanparvarlik, do`stlik, mehnatsevarlik, vafo va sadoqat g`oyalarini yuksak mahorat bilan tasvirlagani uchun ham asrlar osha yashab kelmoqda.

Xalq og`zaki ijodi yozma adabiyotdan ancha ilgari vujudga kelgan va yozma adabiyotning dunyoga kelishi uchun zamin yaratgan, yozma adabiyotning rivoji uchun manba-vazifasini bajargan. Chunki og`zaki ijod yozuv dunyoga kelmasdan oldin ham mavjud edi, shuning uchun bundan necha yuz yillar ilgari yaratilgan xalq durdonalari avloddan avlodga og`zaki tarzda o`tib, bizgacha yetib keldi.

Og`zakilik xususiyati xalq og`zaki poetik ijodini xalq san'atining boshqa turlaridan (musiqa, raqs, o`ymakorlik) ajratib turadi. An'anaviylik kollektiv ijod mahsuli ekanligini anglatadi.

Variantlilik folklor asarlarining davrdan-davrga, ijrovan-ijroga o`tishida yuzaga kelgan o`zgarishlar variantlarda aks etadi. Folklor asarlarining ko`p variantlarda, bir necha nusxalarda tarqalishi variantlilik hisoblanadi. Xalq og`zaki ijodiga xos xususiyatlar: keng omma tomonidan yaratilishi, variantlilik, og`zakilik, yaratuvchi ijodkorning ma'lum emasligi, ana'anaviylik.

Xalq og`zaki poetik ijodning ma'rifiy ahamiyati shundaki, u xalqning tarixi, urf-odati, dunyoqarashi, orzu-umidlari haqida keng bilim beradi. Xalq og`zaki poetik ijodi janrlari bo`lmish qo`shiqlar - mustaqil to`rtliklardan tashkil topgan bo`lib, el orasida keng tarqalgan va kuyga solib aytilgan xalq she'ri namunalidir.

Xalq qo`shiqlarining eng qadimiylari Mahmud Qoshg`ariyning "Devonu lug`otit turk" asari orqali bizgacha yetib kelgan. Quyida biz shulardan dehqonchilik madaniyatiga xos bo`lganlari haqida to`xtalib o`tamiz.

Mehnat qo`shiqlari xalq she`riyatining eng avvalgi turlaridan biri bo`lib, ularning yaratilishi va ijro etilishi kishilarning mehnat jarayoni bilan bog`liqdir. Dehqonlar, hunarmandlar ishlab turib qo`shiq aytganlar. Qo`shiq ularning mehnatlarini yengillatgan, ayrim so`zlari, undov nidolari ko`pchilikni baravar harakat qilishini uyushtirgan. Shu sababdan qo`shiqdagi so`zlar, vazn, qofiya ixcham, aniq bo`lgan. Ayrim so`zlar vaqti-vaqti bilan takrorlanib, hayqiriq, chaqiriq, shikoyat va mamnunlikni bildiruvchi nidolar alohida ohangda aytilib turilgan.

Mehnat turlari xilma- xil bo`lganidek, mehnat qo`shiqlari ham turli-tumandir. Dehqonchilik bilan bog`liq qo`shiqlarga qo`shchi, o`rim, xirmon, yanchish, yorg`ichoq qo`shiqlari kiradi. Quyida ushbu qo`shiqlarga batafsilroq to`xtalib o`tamiz.

Qo`shchi qo`shig`i: Qahraton qishdan bola-chaqasi bilan toliqib chiqqan dehqon bahor kelishi bilan yer haydashga kirishadi. Tabiat jonlangan, xushhavo, biroq uning ho`kizi ishga yaramaydi-o`lguday och, madori qurigan. Dehqon ilk bahordagi nochor ahvolini ho`kiz tilidan shunday tasvirlaydi.

Shoxlarim quloch-quloch,
Yo`q madorim, qornim och,
Tepamda qo`ngan qaldirg`och,
Men qaytib qo`shga yarayman.

Qo`shchi qo`shiqlari yolg`iz qo`shchining o`zi tomonidan baland ovoz bilan, ba`zan xirgoyi qilib ijro etiladi. Ularda dehqonning hayoti, ish hayvonga munosabati tasvirlangan.

O`rim qo`shiqlari: O`rim qo`shiqlari hosilini o`rib-yig`ib olayotgan dehqon o`roqchilar guruhi tomonidan ijro etilib, qo`shiqda dehqonning umidi ro`yobga chiqayotgani, ko`tarinki ruh bilan ishga kirishayotgani bayon qilinadi. Dehqonning yuragida kuch-g`ayrat jo`sh uradi. U g`allani tezroq urib, g`aram qilish niyatida:

O`rog`im olmos,
O`rishdan qolmas,
Sira ham tolmas,
O`rmasam bo`lmas.

O`roqchi qo`shig`ida naqarot o`rnida keladigan qo`yidagi to`rtlik dehqon tilidan takrorlanib, to`qlik, ma`murchilikning qadr-qimmatini, mehnatkash inson ulug`ligi ta`kidlanadi, halol mehnatning unumidan g`am-g`ussa, muhtojlik, qashshoqlik unutilganday bo`ladi.

G`ujmoqi bug`doy,
Donginang to`q-ay.
To`p bo`l, o`raylik,
Xo`pda ko`raylik.

O`roqchi qo`shiqlariga mehnat jarayoniga bilvosita aloqasi bo`lgan qo`shiqlar ham kiradi. Masalan: dehqonlar arpa, bug`doy o`rayotganda, hashar qilishganda o`roqchilar orasiga bir ashulachini o`tkazib qo`yishgan. U lirik dostonlardan parchalarni baland ovoz bilan aytib turgan. Shunday asarlardan biri «Yozi bilan Zebo» dostonidir. Sevgi va sadoqatdan bahs etuvchi, boshdan oxirigacha qiz bilan yigitning savol-javobidan tashkil topgan, hazil-mutoyibadan iborat bu lirik xalq dostoni tinglovchilarni g`oyat zavqlantirar, saratondagi og`ir qo`l mehnatini yengillashtirishda ma`naviy oziq berar edi. Bunda «Yozi bilan Zebo» dostoni to`la ijro etilmagan, balki undan lirik parchalar kuylangan. Dostondan olingan parchalarni kuylovchilarni «Yozichi», «Yozigo`y» deyilgan.

Yoziqo`ylar o`rim maydoni o`rtasida o`tirib, baland ovozda sozsiz kuylaganlar, naqarotlariga o`roqchilar jo`r bo`lib turgan.

Xo`p hayda yoki Maydayo qo`shig`i: Xirmon yanchish vaqtida dehqonlar tomonidan aytiladigan qo`shiqlar «xo`p maydayo» yoki «maydagul» deb yuritiladi. Xo`p mayda baland ovoz bilan cho`zib aytiladi. Ularda dehqonning hosilini yig`ishtirish, ro`zg`or tirikchilikni ta`minlashga intilish, ho`kizning - ishchi hayvonning dehqon hayotida g`oyat katta o`rin tutishi unga bo`lgan muhabbatini tasvirlash bilan ko`rsatiladi: shuning uchun xo`p mayda qo`shiqlarida ho`kizning tavsifi, uning tuyog`idan shoxigacha bo`lgan tasviri buriladi.

Ayri-ayri tuyoqqa, mayda-yo-mayda

Ayri nag`al yarashar, mayda-yo-mayda

Jilviragan quloqqa, mayda-yo-mayda

Tilla sirg`a yarashar, mayda-yo-mayda

«Ko`zlari yongan chiroq», «ko`zlari bor oynaday», «shoxlarining bor chambarak» kabi jonlantirilgan tasvirlarning dehqon tilida aytilishicha ajib hikmat bor, ish hayvoni uning madadkori, suyangan tog`i; tirikchiligi; ro`zg`orning butligi, ochligi va to`qligi-bari shunga bog`liq. Hayvonning ta`rif-tavsif etilishining quvnoq ruhiy holati, mehnat qilish ishtiyoqi, ikkinchi tomondan, xirmon yanchish ritmi, ish jarayoni aks etadi. Xirmon qo`shiqlari ko`p aytilganidan so`zlari quyma, pishiq bo`ladi.

Xo`p mayda qo`shiqlari ijtimoiy motivlari bilan ajralib turadi. Odatda «o`roqda yo`q, mashaqda yo`q, xirmonda hozir» bo`ladigan tekinxo`rlar-oqsoqollar, boylar, soliqchilar, sudxo`rlar, mulla eshonlarning ayni donni somondan ayirish vaqtida xirmon ustida kelib kambag`al dehqonning sho`rini quritganligini, bor hosilni talab olib ketganligiga nisbatan xalqning g`azab-nafrati cheksiz bo`ladi.

Qora-qora qarg`alar, mayda-yo-mayda
Qo`rni ko`rsa yo`rg`alar, mayda-yo-mayda
Uying kuygur darg`alar, mayda-yo-mayda
Xirmonni ko`rsa yo`rg`alar, mayda-yo-mayda
Mayda qilgin uvatib, mayda-yo-mayda
Sensan mening quvvatim, mayda-yo-mayda
Kelayotir eshonlar, mayda-yo-mayda
Dastorini chuvatib, mayda-yo-mayda

Xo`p-mayda qo`shiqlarini ijro etishda ko`pincha «hey mayda, hey», «mayda-yo mayda», «ha, xo`p, hayda» singari nidolar har misra oxirida yoki ikki misradan keyin shunday nidoli satrlar naqorati qilib aytiladi. Bular to`rtlikni bir-biriga ulab, muhim rol o`ynaydi. Qo`shiqda uchraydigan «sakrab-sakrab haydagin», «yo`rtib-yo`rtib haydagin» satrlarida ish hayvonining ildam yurishi, xirmonni tezroq yanchishi dehqonni sevinch tuyg`ulari bilan qo`shilib, ruhiy ko`tarinkilik hosil qiladi. Xirmon qo`shiqlarida umid va xursandchilik bag`ishlovchi satrlar ko`p. Negaki, dehqon og`ir va mashaqqatli kunlar orqada qolganligini ko`rib turibdi. Shunday paytda dehqon o`zining xirmoniga baraka tilaydi. Afsonaviy Bobo dehqonni o`zining xirmoniga baraka chorlaydi:

Mayda-mayda marosim, mayda-yo-mayda
Don samondan arisin, mayda-yo-mayda
Ayni sahar bo`lganda, mayda-yo-mayda
Bobo dehqon dorisin, mayda-yo-mayda

Yorg`ichoq qo`shiqlari: Yorg`ichoq qo`shiqlar deb atalgan qo`l tegirmonini kuni bo`yi aylantirish mashaqqatli mehnat. Bug`doy, arpa, jo`xori, tariqni un qila turib aytiladigan qo`shiq mehnat kishisiga hamroh. Og`ir toshning guldirab, bir joyda aylanib turishi ohangida to`kilgan qo`shiqlar ham vazmin, xam cho`zib aytiladigan bo`ladi:

Yorg`ichoq torta-torta toldi qo`lim

Ikki tosh orasida qoldi qo`lim.

Yorg`ichoq qo`shiqlarida mehnat unumining pastligidan nolish motivlari ma`yuslik bilan bayon etiladi.

Yorg`ichoq yalpoqqina,

Un qilar oppoqqina.

Yorg`ichoq xir-xir etar,

Mushtdakkina xamir etar.

Cho`l dashtlarda, qir adirlarda yashagan chorvador, dehqon xalqimiz, xususan, mazlum xotin-qizlar qo`l tegirmonida ishlab turib, muhtojlikda yashashi, kun kechirishning og`irligi haqidagi mungli qo`shiqlari to`qilgan. Yorg`ichoq qo`shiqlarda ham mehnat ahlining dard-hasratlari, taqdirdan, zolimlar zulmi azoblaridan kuchli norozilik kayfiyatlari bayon etiladi.

Sust xotin marosim qo`shig`i: Qurg`oqchilik munosabati bilan yomg`ir chaqirish marosimida aytiladigan “Sust xotin”, “Talabi boron” “Yomg`ir talab” qo`shiqlari turli irimlar va qadimdan qolgan turli animistik tushunchalar bilan bog`langan. Bunga ko`ra ikkita tayoqni bir-biriga ko`ndalang bog`lab, ayollar kiyimi kiydiriladi, boshiga ro`mol o`raladi. Osmondan yog`in tilaydigan bu «Sust xotin» simvoli - qo`g`irchoqni ayollar yuqoriga ko`tarib uyma-uy yurishadi, hammalari birgalashib qo`shiq aytishadi. Xonadon egalari «Sust xotin» qo`shig`iini aytib kelgan kishilarga chelaklarda suv olib sepishadi, non, don, kabi turli narsalar berib ularni «rozi» qilishgan. Qurg`oqchilik, suv tanqis bo`lgan davrlarda dala-dashtlarda yashagan dehqonlar tabiatga iltijo qilib, mo`l hosil bo`lishini orzu qilgan. Bu narsa qo`shiqda o`z ifodasini topgan.

Sust xotin- sulton xotin,

Ko`lankasi maydon xotin.

Sust xotin- suvsiz xotin,

Ko`ylaklari bo`z xotin.

Havoni yog`dirgin, suv xotin,

Bug`doyni bo`ldirgin, suv xotin,

Elni to`ydirgin, suv xotin,

Suv xotin- sulton xotin.

Bunday qo`shiqlar xalq orasida “Suv xotin”, “Suz xotin”, “Sust xotin”, “Chayla qazaq” nomlari bilan yuritiladi. Buxoro vohasida esa asosan “Sust xotin” deb nomlanadigan bu marosim O`rta Osiyo xalqlarining ham zardushtizim-otashparastlik diniga xos hosildorlik ma`budasi Nohit (Anahita)ga sig`inishi bo`lib, ibtidoiy odatlardan biri hisoblanadi.

Xulosa

Tarixiy ma'lumotlardan ma'lumki, O`rta Osiyo zamini aholisi azal-azaldan vodiylarda, katta suv manbalari – daryo va anhorlar bo`yida yashab keladi. Obi hayot bu hudud hayotining birlamchi asosini tashkil etadi. Asosan cho`l va sahrolardan iborat bo`lgan, tabiati, iqlimi g`oyat murakkab bo`lgan mintqa sharoitining o`zi ana shu millat va elatlarning ming yillar davomida shu iqlimga moslashib, yaqin yelkadosh bo`lib, qulay muhitni o`zlari yaratib yashashlarini taqozo etdi. Haqiqatdan ham bu o`lkada istiqomat qiladigan odamlarning tarqoq bo`lib yashashga imkoni yo`q. Tabiatning o`zi, hayotning o`zi ularni shu ruhda tarbiyalagan.

Ana shu mashaqqat tufayli ham O`rta Osiyo aholisi qadim davrlardan boshlab qulay agrotexnika madaniyatini yaratdilar. Bu esa yangicha xo`jalik tiplarini shakllantirishga xizmat qildi. Xususan, dehqonchilik bilan bog`liq faoliyat turlari aholining rasm-rusum udumlariga ta`sir qila boshladi hamda bu uyg`unlik asosida bugungi kunimizga qadar xalq og`zaki ijodi (folklor) namunlari orqali yetib kelgan badiiy ishlar fikrimizning yorqin dalilidir. Zero, xalq og`zaki ijodi namunlari insoniyat umri bilan tengdosh ijoid turi bo`lib, undagi xalqning so`zlari shunchaki o`z-o`zidan paydo bo`lgan ijod namunlari emas. Ular ham ma'lum bir haqiqatning ifodasidir, ular ham o`zida qaysidir bir mashg`ulotning falsafasini o`zida aks ettiradi.

O`rta aholisi tomonidan mashaqqatli mehnat faoliyati natijasida paydo bo`lgan mashg`ulotlar bora-bora aholining turmush jarayoniga, yashash tutumiga ham singa boshladi. Eng muhim jihati shundaki, bu ijod namunalarining aynan aniq mualliflari ma'lum emas. Ular dastlab ma'lum bir hududda paydo bo`lgan va shu hududda keng tarqalgan. Keyinchalik esa turli xalq vakillarining bir-birlarining madaniy boyliklari, xo`jalik tiplarini

o`zlashtirishlari natijasida ushbu xalq og`zaki ijodining namunalari butun mintaqaga bo`ylab tarqala boshlagan.

Jumladan, Buxoroning qadimgi sug`orilgan yerlari katta qismi Zarafshon daryosi quyi oqimida, uning delta xarakteridagi qadimgi yirik irmoqlaridan Mohondaryo va Vobkantdaryo etaklarida joylashgan bo`lib, u Buxoro vohasining g`arbiy va shimoli-g`arbiy chegarasida yondashgan. Bu rayonning arxeologik manzarasi mezolit davrining ahyon-ahyonda uchrab turadigan chaqmoqtosh qurollaridan tortib, qal`alar va qasrlarning xarobalari hamda Qizilqumga tutashib ketgan suvsiz hududlar ham aytib o`tilgan. Ziroatchilik xo`jaligining rivoji birinchi galda uning texnikaviy jihozlanishi va agrotexnik bilim darajasiga bog`liq. Buxoro vohasi dehqonchiligi asrimiz arafasida nisbatan qoloq moddiy-texnika bazasiga ega bo`lgan edi. Arxeologik ma`lumotlarga qaraganda viloyatimizning ba`zi hududlarida ziroatchilik qurollarining ko`pchiligi, ayniqsa yer haydash va ekin o`rish qurollari ming yillar davomida o`zgarmay, XX asrda ham saqlanib kelgan.

Insoniyat yaralibdiki, rizq-ro`z topishga, o`zi uchun yaxshi hayot tarzini yaratishga harakat qiladi. Buning uchun kerak bo`lsa tabiat bilan kurashadi, uni o`zgartiradi. Tarixga nazar tashlasak, insoniyatning ilk ishlab chiqaruvchi xo`jalikka o`tishi chorvachilik va dehqonchilik bilan bog`liqdir. Dehqonchilik nima o`zi? U qanday madaniyat edi? Dehqonchilik madaniyati iborasi asli yerga ishlov bermoq degan ma`noni anglatib, keyinchalik boshqa sohalarga o`tgan va umumiy tarzda madaniyat (ishlov berish) yaratish so`ziga aylangan. Yerga ishlov berish va o`simliklarni parvarish qilish madaniyati tufayli inson tabiatning farzandi sifatida uning bunyodkorlik qobiliyatini munosib ravishda davom ettirib kelmoqda. Tabiatdagi mavjud yuzlab o`simlik turlarini inson o`z qobiliyati va mehnati tufayli sun`iy ravishda madaniylashtirilib, qishloq xo`jalik

mahsulotiga aylantirilgan. Albatta buning tarixiy ildizlari ancha qadimga borib taqaladi va dehqonchilikning rivojida suvning o`rni benihoya katta.

Xullas, mintaqamiz aholisi, ajdodlarimiz tomonidan o`zlashtirilgan va obod etilgan hududlar, yangidan vujudga keltirilgan sug`orish inshootlari, bugungi kunga qadar o`zining badiiy ahamiyatini yo`qotmay kelayotgan xo`jalik tarzi bilan bog`liq bo`lgan xalq og`zaki ijodining namunalari asrlar davomida faoliyatning mahsulidir. Ularni tadqiq qilish - tarixni o`rganishdir. Zero ular ham tarixiy yutuqlarimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

I. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov asarlari:

1. Karimov I.A – Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T., 2008-yil.
2. Karimov I.A – O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T., 2011-yil
3. Karimov I.A – Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz. 7-jild. T.-"O`zbekiston" 1999-yil.
4. Karimov I.A – Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. 8-jild T., "O`zbekiston" 2000 –yil.
5. Karimov I.A - Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. T., "O`zbekiston" 1996-yil.
6. Karimov I.A – Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T., 1998-yil.

II. Ilmiy, ilmiy-ommabop va adabiy asarlar:

7. Muhammadjonov A. – Quyi Zarafshon vodiysining sug`orilish tarixi. T., 1972-yil
8. Narziqulov.A - Dehqon taqvimi. T.,1991-yil
9. Хакимова.К – Крестьянство Бухарского эмирата в конце XIX - начале XX века. Т.,1991-г
10. Бартольд.В.В, Сочинения т. I, “Туркестан в эпоху монгольского нашествия”. М., 1963-г
11. Narshaxiy - Vuxoro tarixi. T., 1991-yil
12. Jabborov I. – O`zbeklar. T., 2008-yil
13. Jabborov I. – O`zbek xalq etnografiyasi. T., 1994-yil

14. Jabborov I. – Antik madaniyat va ma’naviyat o`chog`i. T., 2003-yil

15. Toshev I. – XIX asr oxiri XX asr boshlarida Zarafshon o`zbeklarining xo`jaligi va ijtimoiy tuzumi. T., 1984-yil

16. Musayev A. – O`rta Osiyodagi dehqonchilik madaniyati va agrar munosabatlar tarixidan. T., 2005-yil

17. Jo`rayev M. – O`zbek mavsumiy marosim folklori. T., 2008-yil

18. Ashirov A. – O`zbek xalqining qadimiy e`tiqodlari va marosimlari. T., “Milliy kutubxona” 2007-yil

19. Jo`rayev M. Xudoyqulova G. – Marosimnoma (o`zbek xalqining urf-odatlarini to`g`risida qisqacha ma`lumotnoma). T., 2008-yil

20. Murod Malik – O`zbek qadriyatlari. T., 1995-yil

21. Eminov K. – Milliy urf-odatlar, marosim va an`analarning shaxs ma`naviy kamolotidagi o`rni. T., 1999-yil

22. Hakimov.M - Turkiston xalqlari qo`llagan taqvimlar. T., 1999-yil

23. Muhammedov.H – O`zbekistonning qadimiy mudofaa inshootlari tarixidan. T., 1976-yil.

III. O`quv qo`llanmalar va ommaviy axborot vositalarida e`lon qilingan maqolalar:

24. Janubiy O`zbekistonda dehqonchilik samaradorligini oshirish texnologiyasi. T., “Nafosat” 2001-yil.

25. O`zbekistonning yangi tarixi. II qism. T., 2000-yil

26. Qurbonova M.B – Darveshona marosimi haqida. “Akademik K.Shoniyozov o`qishlari turkumida O`zbekiston etnologiyasining dolzarb muammolari” mavzuidagi 4-respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. Toshkent-Namangan, 2007-yil.

27. Rahmonov.F – Dehqonchilik udumlari. “Muloqot”, 3-son. 2000-yil

28. Aminov.I – Buxoro hududidagi zovurlar, “Romitannoma”, 1999-yil.

29. Nizomov.A, Rahimova.G - Zarafshon: o`tmish va bugun. “Ma`rifat” gazetasi, 2001-yil.

30. Halimov T. – Navro`z bayrami va uning dehqonlar hayotidagi ahamiyati. “Tarixiy xotira – ma`naviyat asosi” mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. Buxoro, 2012-yil.

IV. Internet saytlari:

31. www.ziyouz.com

32. www.google.ru

33. www.ziyo.net

Mundarija:

Kirish.....	3
I bob. Zarafshon vohasi dehqonchiligining tarixiy ildizlari: sug`orilishi, ziroatchilik xo`jaligi va an'anaviy agrotexnika.....	9
II bob. Taqvimlarda dehqonchilik madaniyati.....	22
III bob. Buxoro vohasi dehqonlarining urf-odat va marosimlari.....	36
IV bob. Xalq og`zaki ijodida dehqonchilik madaniyati...	50
Xulosa.....	57
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	60